

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
MUSIQA TA'LIMI KAFEDRASI**



**Jabberganova Sadoqat Maqsudovna
5111100 – Musiqa ta'limi yo'nalishi bo'yicha**

bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: “Umumta'lim maktablari musiqa darslarida musiqa
o'qitish metodlaridan foydalanish”**

Ilmiy rahbar:

Kazakov Adilbek Madrimovich
Musiqa ta'limi kafedrasida katta o'qituvchisi



Urganch 2019 yil

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Pedagogika

(fakultet nomi)

Musiqqa ta'limi

(kafedra nomi)

**“Umumta'lim maktablari musiqqa darslarida musiqqa o'qitish
metodlaridan foydalanish”**

Bajaruvchi: *Jabberganova Sadoqat*

Jabberganova Sadoqat Maqsudovna

Ilmiy rahbar:

Kazakov Adilbek

Kazakov Adilbek Madrimovich
Musiqqa ta'limi kafedrasi katta o'qituvchisi

Urganch - 2019-yil

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
Pedagogika fakulteti

Musiqa ta'limi

(kafedra nomi)

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO'YICHA TOPSHIRIQLAR

REJASI:

1. Talaba Jabberganova Sadoqat Maqsudovna

Universitet rektorining “ 2 ” noyabr “ 125 ” T - sonli _____ buyrug'i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun “Umumta'lim maktablari musiqa darslarida musiqa o'qitish metodlaridan foydalanish” mavzusi tasdiqlangan.

2. Kafedra majlisining qaroriga binoan katta o'qituvchi Kazakov Adilbek Madrimovich bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.

3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi: bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat.

4. Bitiruv malakaviy ish uchun ma'lumotlar: Mirziyoev.Sh.M. “Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jixatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori, Abralova.M. Musiqa o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. T-2008y, Ibrohimov.O.A. O'zbek halq musiqa ijodi T-1994 y, Ibrohimov O., Nurmatov. H. Musiqa. 4-sinf uchun darslik. T.:2007y, Qodirov.R. “Boshlangich maktabda ko'povozli kuylash” T-1997y, Norxo'jaev.N., Nurmatov. H. Musiqa alifbosi. 1-sinf uchun darslik, T.-2008y, Omonullaev.D. Maktabda musiqa tarbiyasi metodikasi. T-1991y, Sharafiyeva.N. Xorshunoslik T-1987y, Sharipova.G.“Musiqa o'qitish metodikasi” T.2000y, Ma'mirov.Q, “Bolalar xorini tashkil qilish metodikasi”. T.1982y, Ro'ziyev.Sh. “Xorshunoslik”. T.1987y, Ro'ziyev.Sh. “Havaskorlik xor jamoalar tashkil qilish va ular bilan ishlash”. T.-1982y, va boshqa adabiyotlardan olinadi.

5. Bitiruv malakaviy ishga Umumta'lim maktablarining boshlangich sinflarida ko'povozli kuylash malakalarini shakllantirish mansub suratlar ilova qilinadi.

Bitiruv malakaviy ishni bajarish jadvali

№	Bajarilgan ishning mazmuni	Bajarish muddati
1	Mavzuni kafedrada tasdiqlatish	2018-yil. oktabr
2	Bitiruv - malakaviy ishini yozish nizomi bilan tanishish	2018-yil. dekabr
3	Mavzu bo'yicha manba yig'ish, tegishli nazariy adabiyotlarni o'rganish	2019-yil. yanvar
4	O'rganilgan adabiyotlarni tahlil qilish,	2019-yil. yanvar
5	Yig'ilgan materiallarni sistemalashtirish,	2019-yil. fevral
6	Tanlangan mavzuni tadqiq qilishning ilmiy tahlil metodlarini o'rganish	2019-yil. fevral
7	To'plangan materiallar asosida ishni kirish qismini yozish	2019-yil. mart
8	Ishni birinchi bobini yozish	2019-yil. mart
9	Ishning ikkinchi bobini yozish	2019-yil. aprel
10	Ishning xulosa qismini yozish	2019-yil. aprel
11	Adabiyotlar ro'yhatini yozish	2019-yil. aprel
12	Ishni rahbarga tahririyat uchun taqdim qilish	2019-yil. may
13	Ishning dastlabki himoyasi	2019-yil. may

Bitiruv malakaviy ish rahbari: Kazakov **Kazakov Adilbek Madrimovich**

Bajaruvchi talaba: Mammad **Jabberganova Sadoqat Maqsudovna**

2019 yil " 20 " may

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 2018 yil tasdiqlandi

(" 10.09 "2- sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri: _____

Raximov Botir Matyakubovich

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA RAHBARNING MULOHAZALARI

Talaba: Jabberganova Sadoqat Maqsudovna

Bitiruv malakaviy ish mavzusi: "Umumta'lim maktablari musiqa darslarida musiqa o'qitish metodlaridan foydalanish"

Bitiruv malakaviy ish hajmi: 66 sahifadan 12515 so'zdan iborat

Tushuntirish qismi varaqlar soni: 62 sahifadan (11588 so'zdan) iborat.

Mavzuning dolzarbligi: Hozirgi kunda o'quvchilarni kitob bilangina emas, balki bilimning boshqa manbalari bilan ham ishlashga yaxshiroq o'rgatish talab qilinadi. Kundalik turmushimizga radio, kino, televizion, video yozuv, kompyuter va boshqalar tobora keng kirib keldi. Bularning barchasi ilmiy va o'quv axborotlarning boy manbaalaridir.

O'quv faoliyati metodlarini bilish metodlari bilan qiyoslashdagi o'ziga xos xususiyat shundan iboratki, o'qitish jarayonida yangi ilmiy haqiqatni kashf qilish emas, balki olgan bilimlarni ijodiy o'zlashtirish vazifasi hal qilishdi. O'qitish davomida yangi bilimlarni egallash uchun umumiy bilishga xarakterli bo'lgan sinab ko'rish va xato qilishni deyarli mustasno etadigan ancha engillashtirilgan sharoitlar mavjuddir. Shuning uchun ham o'quv faoliyati metodlari bilish metodlari bilan qo'shib olib boriladigan o'quv jarayoni sharoitlari uchun moslashtirilgan.

Bitiruvchi umumkasbiy va maxsus tayyoringarliging tavsifi: Bitiruvchi to'rt yil davomida olgan nazariy bilimlari va maxsus tayyorgarligi natijasida yetarlicha ilmiy xulosalar chiqarishga harakat qilgan.

Bitiruvchi talabaning mustaqil ishni bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari: Bitiruvchi talaba bitiruv malakaviy ishni yozishda ilmiy va metodik adabiyotlardan unumli foydalangan. O'z fikrlarini dalillashda ilmiy - nazariy qoidalarga tayangan holda ish yuritgan.

Tadqiqotning yakuniy qismida ishda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati berib o'tilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari: Bitiruvchi talaba ishni yozishda ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalangan, mavzuni yaxshi yoritishga harakat qilgan.

Bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talablarning bajarilishi darajasi: Bitiruv malakaviy ishi to'la yakunlangan, har bir misol nazariy va amaliy jihatdan aniq faktlar bilan asoslangan va DAK tomonidan qo'yilgan talablarga to'la javob beradi shu sababli, ishni himoyaga tavsiya qilish mumkin.

Bitiruv malakaviy ish rahbari:



Kazakov A.M.

katta o'qituvchi

2019 yil " ___ " _____

Urganch davlat universiteti

Pedagogika fakulteti

5111100 – Musiqa ta'limi vo'nalishi

Jabberganova Sadoqat Maqsudovna

Bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Malakaviy ish mavzusi: “Umumta’lim maktablari musiqa darslarida musiqa o’qitish metodlaridan foydalanish”

Malakaviy ishning hajmi 66 sahifadan 12515 soʻzdan iborat

a) tushuntirish qismi varaqlar soni: 62 sahifadan (11588 soʻzdan) iborat.

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi Hozirgi kunda o’quvchilarni kitob bilangina emas, balki bilimning boshqa manbalari bilan ham ishlashga yaxshiroq o’rgatish talab qilinadi. Kundalik turmushimizga radio, kino, televidenie, video yozuv, kompyuter va boshqalar tobora keng kirib keldi. Bularning barchasi ilmiy va o’quv axborotlarning boy manbaalaridir.

O’quv faoliyati metodlarini bilish metodlari bilan qiyoslashdagi o’ziga xos xususiyat shundan iboratki, o’qitish jarayonida yangi ilmiy haqiqatni kashf qilish emas, balki olgan bilimlarni ijodiy o’zlashtirish vazifasi hal qilishdi. O’qitish davomida yangi bilimlarni egallash uchun umumiy bilishga xarakterli bo’lgan sinab ko’rish va xato qilishni deyarli mustasno etadigan ancha engillashtirilgan sharoitlar mavjuddir. Shuning uchun ham o’quv faoliyati metodlari bilish metodlari bilan qo’shib olib boriladigan o’quv jarayoni sharoitlari uchun moslashtirilgan.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Boshlang’ich sinflarda innovatsion texnologilardan foydalanishning pedagogik shart - sharoitlarini yangicha usullarda ishlab chiqish muammolari va qiziqarli kalaster o’yinlar majmuini dasturlashtirishdir.

Bitiruv malakaviy ishning “Kirish” qismida va ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati: Tadqiqotning “Kirish” qismida

mavzuning dolzarbligi o`rganilishi, maqsad va vazifalarining, ob`ekti va predmeti, ilmiy yangiligi kabi masalalar o`z echimini topgan.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar: Fan-texnika innovatsiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi Bitiruv malakaviy ishda ilmiy manbalardan o`rinli foydalanilgan. Asosan, 2000 yildan keyingi ilmiy-nazariy badiiy adabiyotlar tadqiqot ishining asosini tashkil etgan. Ishda keyingi davrdagi ilmiy tadqiqot ishlaridan internet ma`lumotlaridan unumli foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslanganligi: Bitiruv malakaviy ish ravon ilmiy uslubda yozilgan bo`lib, unda uslubiy, imloviy xatolar deyarli uchramaydi.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta`lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari Bitiruv malakaviy ishda mustaqil mutolaani tashkil etishda ta`lim metodlari o`quv metodlarini chuqur o`zlashtirishga yo`naltirilgan bo`lib, o`quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olinib, ta`lim tarbiya jabhasida yutuqlarga erishishi izchil tahlil etilgan. Tadqiqot ishi natijalaridan umumta`lim maktablari va kasb-hunar kollejarida unumli foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar: Ishda faqat umumta`lim maktabiarida emas, balki bolalar musiqa va san`at maktablari, shuningdek ixtisoslashtirilgan san`at maktabi o`quvchilariga ham interaktiv metodlardan foydalanib dars o`tilsa, ish samaradorligi yanada oshardi.

Taqrizchi:

Matyakubov J.J.

Urganch tumani 11- son BMSM direktori



2019 yil "19" Urganch

Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti Musiqa ta'limi yo'nalishi bitiruvchisi **Jabberganova Sadoqat Maqsudovnaning** "Umumta'lim maktablarining boshlangich sinflarida ko'povozli kuylash malakalarini shakllantirish" mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAK ning " 24 " 2019 - yil " iyun " dagi majlisida himoya qilinadi.

Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilaydi.

№	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida	Komissiya belgilagan foiz
1	BMI ning Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	5
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos holda bajarilishi	35	26
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10	7
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	6
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	7
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5	3
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	7
8	BMI mavzusi bo'yicha ilmiy - nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma'ruza (ahborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10	7
Jami:		100	68

Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori:

1. Jabberganova Sadoqat Maqsudovnaning "Umumta'lim maktablari musiqa darslarida musiqa o'qitish metodlaridan foydalanish" mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun 68 lik o'zlashtirish ko'rsatkichi belgilansin va " o'рта " deb baholansin.

2. _____

DAK raisi: _____

A'zolari: _____

2019- yil " 24 " 06

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI PEDAGOGIKA
FAKULTETI MÚSIQA TA'LIMI KAFEDRASI

Bitiruv malakaviy ish 20 sonli tartib raqam bilan qayd qilindi.

Bitiruv malakaviy ishni bajaruvchining ismi-sharifi: Jabberganova Sadoqat
Maqsudovna

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi: "Umumta'lim maktablari musiqa
darslarida musiqa o'qitish metodlaridan foydalanish".

Ilmiy rahbar (maslahatchi) ning ismi – sharifi: katta o'qituvchi Kazakov
Adilbek Madrimovich

Bitiruv malakaviy ish kafedraning 2019 yil "20" may da
o'tkazilgan majlisi qaroriga muvofiq DAK majlisida himoya qildi.

Bitiruv malakaviy ishga taqrizchi qilib Urganch tumani 11-son BMSM direktori
Matyaqubov J.J. tayinlandi.

Kafedra mudiri:



Raximov B.M.

*Kafedraning bitiruv malakaviy ishni DAK majlisida himoya qilish
bo'yicha tavsiyasiga roziman.*

Fakultet dekani:



dots. J.R.Yarmetov

Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti “Musika ta’limi kafedrası” musika ta’limi yo’nalishi bakalavr

Yarmetov “Tasdiqlayman”
Fakultet dekani dots. J.R.Yarmetov.
“ 2 ” noyabr 2018 y.

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO’YICHA TOPSHIRIQ

Talaba: Jabberganova Sadoqat Maqsudovna

1. Ishning mavzusi: “Umumta’lim maktablari musika darslarida musika o’qitish metodlaridan foydalanish” “ 2 ” noyabr 2018-yil universitet rektorining 125 sonli “ 7 ” - buyrug’i bilan tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: “ 20 ” may 2018 y.

3. Mavzu bo’yicha dastlabki ma’lumotlar beruvchi adabiyotlar ro’yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jixatidan yangi bosqichga ko’tarish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori.
2. Akbarov I.A. “Musika lug’ati”. -Toshkent:, 1987 yil.
3. Abralova M., Galieva D., Qo’shaev A. Musika. 3-sinf. O’qituvchilar uchun metodik qo’llanma. T., 2008 yil.
4. «Maktabda musiqaviy tarbiya» (tavsiyalar). Toshkent. 1991 yil.
5. Babanskiy Yu. Hozirgi zamon umum ta’lim maktabida o’qitish metodlari. Toshkent, “O’qituvchi”, 1990 yil.
6. Soliev N, Umarov A «Musika savodi alifbosi o’qitish qo’llanma. T. 2003 yil.
7. Xasanov. A. «Musika va tarbiya». Toshkent. 1993 yil.
8. Yo’ldosheva.S.X. «O’zbekistonda musika tarbiyasi va ta’limining rivojlanishi». Toshkent. 1985 yil.
9. Nurmatov H., N.Norxo’jaev. Musika. 2-sinf darsligi. NMIU. 2008 yil.
10. Sharipova G.M. Musika va uni o’qitish metodikasi. T., 2006 yil.
11. Omonullaev D. Maktabda musika tarbiyasi metodikasidan lektsiyalar kursi T.1990 yil.
12. Qodirov R.G. Boshlang’ich sinflarda ko’p ovozli kuylash. T., 1997 yil.
13. Ibragimov O. «4-sinf musika darsligi» 2002 yil.
14. D.Omonullayeva, H.Nurmatov va boshqalar. «DTS dasturi» 1999 yil
15. Boymirzayev X. va boshqalar. «Musika o’rganish metodikasi». T. 1995 yil
16. Sharipova G.. «Musika o’qitish metodikasi». Ma’ruzalar matni.
17. Sharipova G. «O’rta III-IV sinflarda musika madaniyati darslari uchun metodik qo’llanma» 2001 yil.
18. Soipova D. Musika o’qitish metodikasi va nazariyasi Toshkent. 2009 yil.
19. Ortiqov T. Musika o’qitish metodikasi. Toshkent. 2010 yil.
20. Karimova D. “Musiqiy pedagogik mahorat asoslari”. Toshkent 2008yil.
21. Karimov M., M.Ikromova Raqs elemenlari orqali o’quvchilarni jismoniy rivojlantirish Toshkent - Ilm ziyo -2008 yil.
22. Ishmuxammedov R. J. Innovation texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari. TDPU 2004 yil.

23. Musabekova S.I. Muziqa tarbiyasi. -Toshkent:, 1973 yil

4. **Ishning maqsadi:** Umumta'lim maktablari musiqa darslarida musiqa o'qitish metodlaridan foydalanish

5. **Chizma materiallar ro'yxati:** Chizma materiallar yo'q.

6. **Maslahatchilar:** yo'q.

Bo'limlar	Maslahatchi F.I.Sh.	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq qabul qildi
Kirish	Kazakov A.M.	3.11.2018	13.11.2018
Musiqa o'qitish metodlarini tanlashning asosiy mezonlari	Kazakov A.M.	20.11.2018 Kazakov	4.12.2018 Kazakov
Musiqa o'qitish metodlarini tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish	Kazakov A.M.	11.12.2018 Kazakov	18.12.2018 Kazakov
Umumta'lim maktablari musiqa darslari va unga qo'yilgan talablar	Kazakov A.M.	25.12.2018 Kazakov	15.01.2019 Kazakov
I-bob bo'yicha xulosa	Kazakov A.M.	22.01.2019 Kazakov	29.01.2019 Kazakov
Musiqa o'qitishning og'zaki metodlari	Kazakov A.M.	6.02.2019 Kazakov	20.02.2019 Kazakov
Musiqa o'qitishning ko'rgazmaii o'qitish metodlari	Kazakov A.M.	19.02.2019 Kazakov	26.02.2019 Kazakov
Musiqa o'qitishning amaliy metodlari	Kazakov A.M.	5.03.2019 Kazakov	12.03.2019 Kazakov
O'quvchilarning bilim malaka va ko'nikmalarini tekshirish va baholash	Kazakov A.M.	19.03.2019 Kazakov	26.03.2019 Kazakov
II-bob bo'yicha xulosa	Kazakov A.M.	2.04.2019 Kazakov	9.04.2019 Kazakov
Xulosa	Kazakov A.M.	16.04.2019 Kazakov	7.05.2019 Kazakov

Ishga taqriz yozuvchining F.I.Sh., ilmiy darajasi, unvoni: Urganch tumani 11-son BMSM direktori Matyaqubov J.J.

Ilmiy rahbar:

Kazakov

Kazakov Adilbek Madrimovich

BMI bajaruvchi talaba:

Mammadova

Jabberganova Sadoqat Maqsudovna

Kafedra mudiri:

Raximov

Raximov Botir Matyakubovich

MUNDARIJA

Kirish	3
I bob. Musiqa o'qitish metodlarini tanlashga qo'yiladigan talablar	6
1.1. Musiqa o'qitish metodlarini tanlashning asosiy mezonlari.....	6
1.2. Musiqa o'qitish metodlarini tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish	12
1.3. Umumta'lim maktablarida musiqa darslari va unga qo'yilgan talablar...	18
Birinchi bob bo'yicha xulosa	24
II bob. Musiqa o'qitish metodlari	25
2.1. Musiqa o'qitishning og'zaki metodlari.....	25
2.2. Musiqa o'qitishning ko'rgazma o'qitish metodlari	33
2.3. Musiqa o'qitishning amaliy metodlari	38
2.4. O'quvchilarning bilim malaka va ko'nikmalarini tekshirish va baholash.....	46
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa	53
Umumiy xulosa	55
Foydalanilgan adabiyotlar	60
Ilova	62

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev bugungi kun o'qituvchilari o'zlarida yuksak ma'naviy-axloqiy xamda kasbiy sifatlarni namoyon eta olishlari lozimligiga aloxida urg'u beradi: "Tarbiyachi - ustoz bo'lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifiy ziyosidan baxramand qilish, xaqiqiy fuqaro etib etishtirish uchun, eng avvalo tarbiyachining o'zi aynan shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak"-degan edi. Darxaqiqat, o'qituvchi bilimdon, zukko xamda o'z kasb maxoratini muntazam takomillashtirib borish layoqatiga ega bo'lmas ekan, u aloxida xurmatga loyiq ustoz, pedagogik jarayonning faol boshqaruvchisi bo'la olmaydi ¹.

Mavzuning dolzarbligi: O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish kelajakda o'qituvchilik kasbini egallaydigan yangi avlodni yuqori kasbiy madaniyat, ijodiy va ijtimoiy faollik, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil qatnasha olish qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan.

Har bir o'quv fanida o'qitishning ayrim maxsus metodlaridan foydalaniladi. Metodlar xazinasini uzluksiz yangilanib turadi, uni ko'rgazmalilikning zamonaviy texnik vositalari, audio texnika, dasturlashtirish vositalari va hakazolarni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan yangidan yangi metodlar qo'shilmoqda.

Biror bir faoliyat metodi bu faoliyatni amalga oshirish usuli bo'lib, u ko'zlangan maqsadga erishishga olib boradi. Biz to'g'ri metodni tanlar ekanmiz, ko'zlangan natijaga komil ishonch bilan va qisqa yo'l bilan erishamiz. Hozirgi kunda pedagoglar tomonidan faoliyat metodlarining boy xazinasini to'plangan, lekin mashg'ulotlarning to'xtovsiz murakkablashib borishi va yangi imkoniyatlarning yuzaga kelishi ularni hal qilish metodlarini muftasil yangilab turishni talab qiladi. Bu aytilgan fikrlar o'qitishga ham bevosita taaluqlidir.

1. M.Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishish kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahamasining 2016yil yakunlari va 2017 yil istiqbollarga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi.//Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar №11.

Ushbu bitiruv malakaviy ishni yoritishda metodlarning klassifikatsiyasi ustida to'xtalib o'tirmaymiz, balki o'qituvchilar uchun metodik adabiyotlarda, maktab faoliyati amaliyotida odatda tilga olinadigan metodlarnigina aytib o'tamiz.

O'qitishning hikoya, suhbat, ma'ruza, ilyustratsiya turlari, namoyish qilinadigan vositalar, ovoz sozlash mashqlarini, musiqa savodi topshiriqlarining, amaliy tarzda o'tkaziladigan tajribalarni bajarish, bilishga yordam beradigan o'yinlarni, o'quv munozaralarini, o'quv faoliyatida rag'batlantirish va tanbeh berish metodlarini, o'quv materialini muammoli bayon qilish, muammoli suhbatlar, tadqiqot tajribalarini qo'llash, induktiv va deduktiv mulohazalardan foydalanish, kitob ustida ishlash, og'zaki so'rash, yozma ishlar, nazorat ishlari va hakazolar o'qituvchilar uchun juda yaqin va tushunarlidir.

Boshlang'ich sinflarda o'qish, yozish, hisoblash, rasm chizish, qo'shiq kuylash, o'quv kitobi bilan ishlash sur'atini oshirish uchun yangi va yangi, qulay imkoniyatlar yuzaga kelmoqda. Bu o'rinda quyi sinflarning o'quvchilari uchun qulay bo'ladigan mustaqil ishlash metodlari, o'quv faoliyatining yanada tezroq ishlash sur'atini mashq qilish usullari alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalar olti yoshdan o'qiy boshlaydilar, shuning uchun ham boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'qishga qiziqishlarini rag'batlantirish kerak. Bu erda metodlarni xilma-xillash hamda butun dars o'quvchilarda zarur ishchanlik qobiliyatini saqlash uchun bu usullarni oqilona almashtirib turish ayniqsa foydalidir.

Hozirgi kunda o'quvchilarni kitob bilangina emas, balki bilimning boshqa manbalari bilan ham ishlashga yaxshiroq o'rgatish talab qilinadi. Kundalik turmushimizga radio, kino, televidenie, video yozuv, kompyuter va boshqalar tobora keng kirib keldi. Bularning barchasi ilmiy va o'quv axborotlarning boy manbaalaridir².

2. Sh.M.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz.T. "O'zbekiston" 2017 yil.

Ushbu bitiruv malakaviy ishda musiqa darslari jarayonida musiqa o'qituvchisi tomonidan amalga oshiriladigan o'qitish metodlari haqida keng fikr yuritiladi.

Mavzuni yoritishda men ko'plab adabiyotlardan, ilmiy maqolalardan, vaqtli matbuot nashrlaridan mohir pedagoglarning qimmatli maslahatlaridan va ish tajribalaridan, ko'plab maktablarning fan o'qituvchilarining turli xildagi dars o'tishlarini baholi qudrat kuzatganlarimizdan va ularning ijobiy tomonlarini tahlil qilganlarimdan foydalandim.

O'quv faoliyati metodlarini bilish metodlari bilan qiyoslashdagi o'ziga xos xususiyat shundan iboratki, o'qitish jarayonida yangi ilmiy haqiqatni kashf qilish emas, balki olgan bilimlarni ijodiy o'zlashtirish vazifasi hal qilishdi. O'qitish davomida yangi bilimlarni egallash uchun umumiy bilishga xarakterli bo'lgan sinab ko'rish va xato qilishni deyarli mustasno etadigan ancha engillashtirilgan sharoitlar mavjuddir. Shuning uchun ham o'quv faoliyati metodlari bilish metodlari bilan qo'shib olib boriladigan o'quv jarayoni sharoitlari uchun moslashtirilgan.

O'quv faoliyati metodlarini hosil qilish uchun ko'plab yillar sarflangan o'quv axborotini bilishga qisqaroq yo'lni topib beradi. Ular o'quvchilarning yosh xususiyatiga bevosita holda bog'liq bo'ladi. O'quv faoliyati metodlarining o'ziga xos xususiyati mana shunda ham nomoyon bo'ladi.

O'qitish metodlari dars berish metodlari bilan o'rgatish metodlarining birligini taqazo etadi va shu ma'noda ular o'qituvchi hamda o'quvchilarning o'zaro bog'liq faoliyatlarining usullari hisoblanadi³.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Shu kungacha ko'plab olimlarimiz tomonidan umumta'lim maktablari musiqa darslarida musiqa o'qitish metodlariga oid salmoqli ishlar qilingan. Jumladan, Sharipova G.M, D.Omonullaev, Ro'ziev Sh, Gudkova E.A, Vasileva A.B, Soliev N, Umarov.A,

³ Abralova M., Galieva D., Qo'shaev A. Musiqa. 3-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. T., 2008 yil.

Yo'ldosheva S.X, Qodirov R.G. kabi olimlarimiz tomonidan ijro usullari, milliy bezaklarning qo'llanilishi, ularni ijro etishga o'rgatish, ilmiy-metodik qo'llanmalari va ko'plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Yuqorida qayd etilgan ilmiy ishlarga asosan ushbu ilmiy yo'nalishni davom ettirib, tanlagan mavzuni yoritishga harakat qildik.

Mavzuning predmeti. O'zbekiston Mustaqillikka erishgandan so'ng, ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, kadrlar tayyorlashga yangi uslubda yondoshilishi, o'zining yaxshi samarasini bermoqda.

Mavzuning maqsadi va vazifalari. Dars berish va o'rgatish metodlarini, o'qish - bilish faoliyatining jarayonini faollashtirishga yo'llab, uni kuchaytirish. Musiqa tinglash madaniyati, musiqa ijrochiligi, musiqa bilishlari, musiqa - ijodiy malaka va ko'nikmalari va qobiliyatlarni rivojlantirish.

Mavzuning obyekt. Umumta'lim maktablarida musiqa darslari bilim olayotgan o'quvchilari. Buning uchun har xil suhbat, savol-javoblar, baxs, munozaralar, konsertlar o'tkazish, milliy ijrochilik manbalarini to'plash, kuzatish, ularni o'rganish, ilg'or pedagoglar, mohir sozandalar, musiqashunoslar ish tajribasini o'rganish, ularni taxlil qilish, xulosalar chiqarish.

Mavzuning metodologik asoslari va ilmiy-tadqiqot ishlari. Mavzuning metodologik asoslari O'zbekiston Respublikasi mustaqillik mafkurasi, milliy istiqlol g'oyasi, birinchi prezidentimizning san'at va ma'naviyat haqidagi farmonlari, chiqishlari, ma'ruzalari va yozgan kitoblarida mustaqillik va yoshlarning ma'naviy kamoloti yo'nallishidagi fikrlari va «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta'lim va tarbiya sifatini ko'tarishga qaratilgan vazifalar hamda g'oyalaridan iborat.

Mavzuning ilmiy tadqiqot metodlari quyidagilardan iborat:

1. Kuzatuv, bahs, munozara, tafakkur va ijod, suhbatli konsertlar.
2. Suhbatlar, har xil intervyular olish, amaliyotdagi taniqli sozandalar, musiqa tarixchilari, nazariyotchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish, savol-javob, intervyu hamda tajriba sinov ishlari.

Mavzuning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati. Mavzuning ilmiy yangiligi, shu yo'nalishdagi ma'lumotlarni to'plab, o'rganib uni yoshlar orasida keng targ'ibot qilishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishimizning metodlari: Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilish, kuzatish, suhbat, anketa, test - nazorat usullari, savol - javob, pedagogik tajribalar o'tkazish, to'plangan natija va dalillarni matematik-statistik jihatdan ishlash, qayta ishlash, umumlashtirish va xulosalash.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi: Kirish, 2 bob, 7 paragraf, hulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat.

I-bob. Musiqa o'qitish metodlarini tanlashga qo'yiladigan talablar

1.1. Musiqa o'qitish metodlarini tanlashning asosiy mezonlari

Pedagogik va falsafiy adabiyotda metod ko'p hollarda faoliyatning muayyan maqsadlariga erishishga olib keluvchi usullarning majmui sifatida ham ta'riflanadi.

Pedagogik adabiyotda ham ko'p hollarda usulni metodning bir qismi deb hisoblanadi. Mutahassislar usul metodlarning umumiy tizimida kichik tizim rolini bajarishni ta'kidlaydilar. Mutaxassislar bu tushunchalarning dialektik ekanligini, tegishli pedagogik vaziyatlarda usulning metodga o'tishi mumkinligini qayd etadilar, asosiy ajratish, o'xshashlik (anologiya), konkretlashtirish, tushuntirish, qiyoslash kabi aqliy faoliyat usullarini va shuningdek, o'quv ishlari, vazifalar, masalalarni echish, musiqiy tahlil qilish usullari va hakazolarni ta'rifladilar. Usullarning birinchilari ularning fikricha, umumdidaktik, keyingilari esa metodik xususiyatga egadir⁴.

Metodlarning optimal birikmalari haqidagi tasavvur hamisha konkretidir. Ayrim sharoitlar uchun muvaffaqiyatli, samarali bo'lgan narsa boshqa sharoitlar,

⁴ "Maktabda musiqaviy tarbiya" (musiqa o'qituvchilari uchun metodik tavsiyalar). Toshkent. 1991 yil.

boshqa mavzu uchun mutlaqo nomaqbul bo'lib chiqishi mumkin. U yoki bu metodning optimalligi uning atalishi va odat bo'lib qolganligi bilan izohlanmaydi. Optimal tanlangan metodlar qo'yilgan vazifalarni ajratilgan vaqtda ko'ngildagidek hal qilish uchun etarlicha imkon beradi. Buning ustiga, ma'lum vaziyatda darsning ma'lum bosqichida, odatda metodlardan biri ustun bo'lgan metodlarning kompleksi, metodlarining birikmasi yoki metodlarning tizimi optimal bo'lib chiqadi. Bu holatni o'qitish metodlarini tanlashda doimo nazarda tutish mumkin⁵.

O'qitish metodlarini qo'llash konkret pedagogik vaziyatga bog'liqligi sababli, o'quv jarayonida har bir metodning doimiy salmog'i qandayligini hisoblash, ko'rgazmalilik, muammolilik va shu kabilar uchun ma'lum foizni belgilash mumkin emas. Qisqa qilib aytganda, har bir pedagogik vaziyatda o'qitish metodlarini standart tanlash emas, balki tushungan holda va aniq qilib tanlash zarurdir. Bunday tanlashni amalga oshirish uchun ma'lum kriteriyga ega bo'lmoq kerak. O'qitish metodlarini quyidagilar bilan:

1. O'qitishning qonuniyatlari va undan kelib chiqadigan tamoyillari bilan.
2. O'qitishning maqsad va vazifalari bilan umumiy holda va mazkur bosqichda xususiy holda.
3. Musiqa madaniyati fanining mazmuni va metodlari bilan umumiy holda umuman va xususan shu fan, mavzular bilan xususiy holda.
4. O'quvchilarning o'quv imkoniyatlari:
 - a) yoshi (jismoniy, musiqiy, ruhiy imkoniyatlari);
 - b) tayyorgarlik darajasi (ta'limiy va tarbiyaviy imkoniyatlari);
 - v) sinf jamoasining xususiyatlari bilan.
5. Tashqi sharoitlar (joy, iqlim, muhit va shunga o'xshashlar)ning xususiyatlari bilan.

⁵ Babanskiy Yu. "Hozirgi zamon umum ta'lim maktabida o'qitish metodlari". Toshkent, "O'qituvchi", 1990 yil.

6. O'quvchilarning imkoniyatlari, ularning musiqiy tajribalari, me'todlarining ma'lum birikmalari, samaraliroq bo'lib chiquvchi o'qitish jarayonining tipik vaziyatlarini bilishlari, ularning musiqadan nazariy va amaliy tayyorgarliklari darajasi, ma'lum metod, vositalarni qo'llash qobiliyatlari, shaxsiy sifatleri va hakazolar bilan aniqlanadi.

Talabalarning bunday guruhi talablar tizimining barcha asosiy elementlari: o'quvchilar, o'qituvchilar, tashqi sharoitlar, shuningdek, o'qitish jarayonini o'zining tarkibiy qismlari - o'qitishning maqsad, mazmun, metod, shakl, vosita va kutilgan natijalarga qaratiladigan yaxlit tizimli yondoshuv bilan aniqlanadi albatta.

O'qitish metodlarini tanlash o'qitish qonuniyatlariga va ulardan kelib chiqadigan tamoyillarga bo'ysindirilishi kerak, bu metodlar ta'lim, tarbiya va kamolotga etkazish vazifalarini kompleks hal qilishga; qo'llanilayotgan metodlarning ilmiyligini ta'minlashga; ularning o'quvchilar uchun qulayligi, o'qishda faollik va mustaqillikni rivojlantirishga, bilimlar, musiqiy qobiliyat, mahorat va malakalarning mustahkamligini ta'minlashga qaratilishi zarurligini taqazo etadi.

O'qitish metodlarini tanlashda ularni o'qitishning muayyan maqsad va vazifalarini hal qilishdagi qiyosiy samaradorliklari haqida tasavvurga ega bo'lish muhimdir. Shuning uchun ham mutaxassis - olimlar tomonidan amalga oshirilgan ayrim o'qitish metodlari samaradorligini qiyoslashni; o'qitish jarayonida aytilayotgan fikrni ko'rgazmali qurollar bilan mos holda birlashtirishdek ratsional variantlarni o'ta qimmatli didaktik tadqiqotlar deb hisoblash kerak. Bularning hammasi o'qitish metodlarini optimal tanlashga, keng ma'noda esa, umuman, o'qitish jarayonini tuzilishini optimal tanlashga, keng ma'noda esa, umuman, o'qitish jarayonining tuzilishini optimal tanlashga nisbatan anchagina tizimga solingan talablarni shakllantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratadi.

O'qitish metodlaridan har birining imkoniyatlarini anglash pedagoglarni dars berishdagi shablondan va bir - biridan andoza ko'chirishdan asraydi va tegishli vaziyat uchun maqbul metodlarni tanlashga olib keladi.

6. O'quvchilarning imkoniyatlari, ularning musiqiy tajribalari, me'todlarining ma'lum birikmalari, samaraliroq bo'lib chiquvchi o'qitish jarayonining tipik vaziyatlarini bilishlari, ularning musiqadan nazariy va amaliy tayyorgarliklari darajasi, ma'lum metod, vositalarni qo'llash qobiliyatlari, shaxsiy sifatlari va hakazolar bilan aniqlanadi.

Talabalarning bunday guruhi talablar tizimining barcha asosiy elementlari: o'quvchilar, o'qituvchilar, tashqi sharoitlar, shuningdek, o'qitish jarayonini o'zining tarkibiy qismlari - o'qitishning maqsad, mazmun, metod, shakl, vosita va kutilgan natijalarga qaratiladigan yaxlit tizimli yondoshuv bilan aniqlanadi albatta.

O'qitish metodlarini tanlash o'qitish qonuniyatlariga va ulardan kelib chiqadigan tamoyillarga bo'ysindirilishi kerak, bu metodlar ta'lim, tarbiya va kamolotga etkazish vazifalarini kompleks hal qilishga; qo'llanilayotgan metodlarning ilmiyligini ta'minlashga; ularning o'quvchilar uchun qulayligi, o'qishda faollik va mustaqillikni rivojlantirishga, bilimlar, musiqiy qobiliyat, mahorat va malakalarning mustahkamligini ta'minlashga qaratilishi zarurligini taqozo etadi.

O'qitish metodlarini tanlashda ularni o'qitishning muayyan maqsad va vazifalarini hal qilishdagi qiyosiy samaradorliklari haqida tasavvurga ega bo'lish muhimdir. Shuning uchun ham mutaxassis - olimlar tomonidan amalga oshirilgan ayrim o'qitish metodlari samaradorligini qiyoslashni; o'qitish jarayonida aytilayotgan fikrni ko'rgazmali qurollar bilan mos holda birlashtirishdek metodlarning variantlarni o'ta qimmatli didaktik tadqiqotlar deb hisoblash kerak. Bularning hammasi o'qitish metodlarini optimal tanlashga, keng ma'noda esa, asosan, o'qitish jarayonini tuzilishini optimal tanlashga, keng ma'noda esa, asosan, o'qitish jarayonining tuzilishini optimal tanlashga nisbatan anchagina darajada solingan talablarni shakllantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratdi.

O'qitish metodlaridan har birining imkoniyatlarini anglash pedagoglarni o'qitish jarayonidagi shablondan va bir - biridan andoza ko'chirishdan asraydi va har bir vaziyat uchun maqbul metodlarni tanlashga olib keladi.

O'qitish vazifalari musiqa fanining konkret mazmuni orqali amalga oshirilishi sababli o'qitish metodlar o'quv materialining xususiyatini, o'quvchilarning o'sha mazmuni egallashlari uchun zarur bo'ladigan xatti - harakatlari xarakterini har tamonlama hisobga olish kerak.

Metod - bu tashqi shakl emas, balki mazmuni qalbi va tushunchasi ekanligini bejiz ta'kidlashmagan. Bundan metodlarni o'qitish mazmunidagi xususiyatlar bilan muvofaqligi o'rtasidagi mezon yuzaga keladi. Agar mezon mazmun harakatning shakli sifatida ham ta'riflanishini nazarda tutadigan bo'lsak u holda mezonning ahamiyati yanada ravshanlashadi. Chunki bir mazmun izlanib, o'rganishga qulay bo'lsa, boshqasi bunday metodni qo'llashga yo'l qo'ymaydi va shu kabilar. Shunday qilib, turli metodlarning berilgan mazmuni ochishdagi imkoniyatlarini maxsus baholash zarur ekan albatta.

Ta'lim metodlarining ma'lum yoshdagi o'quvchilarning va ayniqsa, ma'lum bir sinf o'quvchilarining imkoniyatlaridan ajralgan holda tanlash mumkin emas.

Metodika ta'sir ko'rsatayotgan obektni, ya'ni shu metodika tadbiri qilinadigan, o'sayotgan, kamol topayotgan kishini bilish bilan organik bog'liqdir. O'quvchilarning jismoniy kuchi musiqiy iqtidori, bilim zahirasi, fikrlash malakalari va shuning kabilarga qarab, ta'lim va tarbiya metodlari ham o'zgaradi⁶.

O'qitish metodlarini tanlashda o'quvchilarning o'quv imkoniyatlari mezon o'qituvchi o'quvchilarning izlanish faoliyatini materialini dedustiv o'zlashtirishga va mustaqil amaliy ishga uning tayyorgarlik darajasini, o'qishga munosabatlarini, o'qishda o'z - o'zining nazorat qilishning rivojlanganlik darajasi va ish qobiliyatining holatini albatt o'rganishini nazarda tutuadi. Bunday o'rganish jarayonida ayniqsa o'quvchilarning o'qishda orqada qolishlarini asosiy sabablarini aniqlash juda muhimdir. Bu sabablarini ob'ektiv tahlil qilishga shu sinf dars berayotgan o'quvchilarning sinf rahbari boshchiligida o'tkazadigan

⁶Medov R. J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. TDPU 2004

kengashlari yordam beradi. Bunday kengashlarda o'quvchilarning orqada qolish sabablari aniqlanadi va bu sabablarni bartaraf qilish tadbirlari ta'lim tarbiya jaranini takomillashtirishning choralari bilan birgalikda ishlab chiqiladi.

Hozirgi zamon pedagogikasi va psixologiyasida o'quvchilarning ulgurmasliklariga sabab bo'lgan hodisalar yoki holatlar quyidagi guruhlariga ajratiladi:

1. Bolani tarbiyalashdagi (bola ahloqiy fazilatlarining rivojlanishdagi; bolaning o'qituvchilarga, jamoaga, oilaga va hakazolarga nisbatan munosabatidagi; musiqa tarbiyasidagi) kamchiliklar.

2. Bolaning ruhiy rivojlanishidagi kamchiliklar (shaxs intellekti, irodasining sust rivojlanganligi, shaxsning emotsional sohalari, bilishga bo'lgan qiziqishlari, ehtiyojlarining talab darajasida emasligi).

3. Biologik rivojlanishdagi etishmovchiliklar (sezgi organlaridagi kamchiliklar, jismoniy darmonsizlik, o'quvchiga salbiy ta'sir qiluvchi oliy asab faoliyatining xususiyatlari psixopotologik o'zgarishlar).

4. Shaxsning o'qish tajribasidagi kamchiliklar (bilim va maxsus mahoratlarda o'quv mehnati malakalaridagi etishmovchiliklar).

Tashqi:

1. Maktab ta'siri (o'qitish jarayonidagi, o'quvchiga individual yondoshishdagi, maktabning - o'qituvchilar, o'quvchilar jamoasi va boshqalarning tarbiyaviy ta'sirlari) dagi kamchiliklari.

2. Maktabdan tashqaridagi muhit (oilal, maktabdagi tengdoshlar, turar joydagi bolalar va kattalar)ning ta'siridagi kamchiliklar.

O'qituvchilar o'zlashtirmaslik sababalarining aniq doirasini bilganlaridan so'ngina ularni bartaraf etish va har qanday nohushliklarning oldini olishni metodlarini to'g'ri belgilab olishlari mumkin.

Psixologik metodlarni tanlab qo'llangan holda o'quvchilarning o'zlashtirmaslik sabablarini o'rganish tajribasini men o'zim yashayotgan qishloqning maktabida kuzatdim. Maktabimiz direktori rahbarligida bu erda o'qituvchilarni ana shunday ishga muntazam tayyorlash amalga oshirildi.

O'quvchilarning aniqlangan imkoniyatlariga qarab o'qishni tashkil qilish jarayonida rag'batlantirish va nazorat qilish ishlari birga qo'shilib ketadi. Ayniqsa o'qituvchi imkoniyatlarning o'zgarayotgan darajasiga oddiygina moslashib qolmasdan, balki ularning mustaqilliklarini faollashtiruvchi o'qitish metodlaridan foydalanishdagi bu imkoniyatlarini asta sekin kengaytirib borishga harakat qilishi kerak.

Sinf tayyorgarligining yuqori darajada bo'lishi mustaqil ish metodlari, hikoya va ma'ruza metodlarining hissasini bir muncha oshirishni, ko'rgazmalilikning eng oddiy vositalari rolini kamaytirishni talab qiladi. Aksincha, tayyorgarligi past darajada bo'lgan sinfda metodlarni tanlashning boshqacha usuli talab qilinadi, jumladan, bu erda suhbat va ko'rgazmalilik metodlari ko'proq bo'ladi, adabiyot ustida mustaqil ishiash hissasi esa ancha kamaytiriladi. Bunday sinfda metodlarni ko'proq variantlash, ularni xilma - xilligini oshirish talab qilinadi.

Kun oxirida o'quvchilarga qobiliyatining pasayishi sababli, ulardagi charchoqni olish hamda mavzuni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishini quvvatlash metodlar va ko'rgazmali vositalarni birmuncha ko'proq xilma xillash talab qilinadi. Shunday qilib, mavzuning mazmunigina emas, balki auditoriyaning xususiyatlari ham o'quv va metodik qo'llanmalarda ifodalangan o'qitish metodlari haqida tavsiyalarga tuzatishlar kiritadi. Sinf imkoniyatlari darajasini hisobga olish unga har doim moslashish lozim ekan degan fikrni anglatmasligi kerak. Pedagoglarning vazifasi, yanada yuqoriroq darajadagi metodlarni qo'llagan holda bu imkoniyatlarni rivojlantirishdan iboratdir⁷.

O'qituvchi, bundan so'ng, o'qituvchining o'zida mavjud bo'lgan imkoniyatlarini hisobga olish mezoniga tayanish kerak. O'qitish uchun tashqi sharoitlarni hisobga olish o'quvchining metodlarini tanlashni maktabning mavjud o'quv - material bazasi, o'quvchilarning shanbalikdagi umumiy mehnati

⁷ Soipova D. Musiqa o'qitish metodikasi va nazariyasi Toshkent. 2009 yil.

harakteri, tabiiy atrof - muhitning o'ziga xosliklari bilan taqqoslashini nazarda tutadi. O'quvchining o'z imkoniyatlari uning individual mayli, masalan hikoya qilish, qo'shiq aytish, raqsga tushish va shu kabilarga bo'lgan qiziqishlarga bog'liq bo'ladi.

O'qitishning ayni bir vazifasini turli metodlarni qo'llab taxminan o'sha darajada muvaffaqiyatli hal etish mumkin. Shuning uchun ham metodlarni tanlashda o'qituvchining individual xususiyatini hisobga olish o'qitishda sub'ektivzimga olib bormaydi. Qo'llaniladigan metod individual shaxsiy tus berish uning o'quvchilarga ko'rsatidan ta'sirini kuchaytiradi. Metodlarni tiklashdi o'qituvchi o'sha metodlarning u yoki bu birikmasini qo'llash uchun vaqtning bor yo'qligini ham hisobga olinadi. Ma'lumki, ayrim metodlar ko'proq vaqtni (muammoli, individual), boshqalari (reproduktiv, deduktiv) kamroq vaqtni talab qlladi. Shuning uchun ham o'qituvchi ba'zida ajratilgan vaqt reglamentidan chiqib ketmaslik maqsadida dastlab tanlangan metodlar kompleksdan kelishuvchilik bilan cheklanadi.

Shunday qilib, o'qitish metodlarini optimal tanlashning asosiy mezonlari qatoriga jarayonning tegishli bosqichidagi o'qitishning asosiy maqsadlariga, mavzu mazmunining xususiyatlariga, o'quvchilar va o'qituvchilar imkoniyatlariga, o'qitishga ajratilgan vaqtga, shuningdek o'qitishning tashqi sharoitlariga muvofiq kelishlik mezonlarini kiritamiz. Bunda barcha mezonlarning majmui hozirgi zamon maktabidagi o'qitish qonuniyatlari va tamoyillariga muvofiq kelishi kerak.

1.2. Musiqa o'qitish metodlarini tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish

Turli o'qitish metodlarining imkoniyatlarini baholashda o'quvchilani yosh xususiyatini hisobga olmaslik mumkin emas, to'g'ri, o'quvchilarning yosh xususiyatlari dasturlarda va darsliklarda hisobga olingan, lekin metodlarni tanlashda bir qator shunday holatlar borki, bularni o'qituvchining hisobga olishiga to'g'ri keladi. Maslan, dastur va darslik mazmunidan hali darsda

og'zaki o'qitishning qaysi konkret metodlari hikoya, suhbat, tushuntirish metodlaridan foydalanish kerakligihaqida bevosita borilayotganligi sezilayotir. Bu erda o'qituvchiga o'quvchilarning aynan yosh xususiyatlari ish qobiliyatlari va diqqatlarini boshlang'ich sinflarda hikoya - suhbatga, sinflarning o'rta guruhida suhbat - hikoyaga afzallik berish afzal ekanligini, yuqori sinflarda esa, aytib o'tilgan metodlar bilan bir qatorda lektsiyadan ham foydalanish mumkinligini nazarda tutib hisobga olishga to'g'ri keladi.

Ko'rgazmali metodlar to'g'risida ham shu gaplarni aytish mumkin ularni o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olga holda qo'llashning salmog'i quyi quyi sinflardan yuqori sinflarga qarab kamayib boradi. Amaliy metodlarga kelganda ularni qo'llash darajasi mavzuning xususiyatlariga butunlay bog'liq bo'ladi.⁸

O'qituvchiga o'quvchilarning bilish faoliyati yosh xususiyatlarini ham hisobga olishga to'g'ri keladi. Bu erda quyi sinflardan yuqori sinflarga qarab bo'ladigan quyidagicha tipik o'zgarishlarni eslab qolish mexanik usullarning qisqarishi va eslab qolishning mantiqiy usullari kengayish tomon o'zgarishni aytib o'tishga to'g'ri keladi.

Reproduktiv harakterdagi bilish faoliyatining usullari yuqori sinflar sari qisman izlanish va muammoli izlanish usullari bilanborgan sari ko'proq almashinib boradi. O'quvchilarning o'quv materialini egallash bo'yicha mustaqil ishlarga oid xilma - xil metodlarning salmog'i quyi sinflardan - yuqori sinflarga tomon ortib, darsda o'qituvchining o'quv materialini bevosita bayon qilish bilan bog'liq bo'lgan ishlarning turlari kamayib boradi.

Musiqa faoliyatlarini quyi sinflardan yuqori sinflarga qarab rag'batlantirish va nazorat qilishda mazmunning qiziqarliligi bilan rag'batlantirishning rolini kamayishi va aksincha, bo'lish qiyinchiliklari yordamida rag'batlantirishning ahamiyati ortishi kuzatiladi. O'quv faoliyati bevosita boshqarish darajasi quyi

⁸ Konnorova Ye. Ritmika Toshkent. 2007 yil.

sinflardan yuqori sinflarga qarab susayib va, aksincha, o'quvchilar tomonidan o'qishga o'zini - o'zi boshqarishning darajasi hamda roli ortib boradi. Musiqa darslaridagi o'qitish metodlarining xilma - xilligi bo'lgan talablar ham yoshga ko'ra ma'lum o'zgarishlarga duch keladi, agar bu boshlang'ich va o'rta sinflarda o'quvchilarning qobiliyatlarini va o'rta guruhlarda o'quvchilarda o'qishga qiziqishni qo'llab - quvvatlash uchun ayniqsa katta ahamiyatga ega bo'lsa, yuqori sinflarda bunday yondoshuv uncha muhim bo'lmay qoladi, chunki o'quvchilar, maslan, butun dars davomida ma'ruza tinglashga qarshi bo'ladilar. Garchi bu erda ham xilma-xilligi, albatta undan optimal darajada foydalanilganda, ijobiy rol o'ynaydi.

O'quvchilarning yoshiga ko'ra sur'ati hali tipik o'zgarishlarga uchraydi, u quyi sinflardan yuqori sinflarga tomon har doim o'sib boradi, buning oqibatida dars davomida o'zlashtirish uchun borilayotgan o'quv materialining hajmi ham ortib boradi.

O'quvchilar qobiliyatining o'sishi hisobga olinib, uy vazifalarining hajmi ham ko'payib boradi. Agar quyi sinflarda vazifalarni tayyorlash 1 soatdan 2 soatgacha vaqt talab qilsa, V-VI sinflarda bir kunda 2,5 - 3 soatgacha vaqtni talab qiladi. O'quvchilarni o'rganish jarayomida yoshlarining o'quv imkoniyatlari ulg'ayishlari bilan bir tekstda rivojlanmasligi nazarda tutish kerak. O'quvchilarning imkoniyatlari quyi sinflarda agar o'sgan bo'lsa, V - VI sinflarga kelib ancha sustlashadi. VII - VIII sinflarga kelib u o'sish sur'atining jadallashuvi bilan almashinadi. O'qishga bo'lgan munosabatning o'zgarishi va intizomlilikka kelganda shuni aytish kerakki, bu erda ba'zi ikkilanishlar ko'zga tashlanadi. Maslan, o'quv intizomsizligi sinflarning o'rta guruhida, kichik o'smirlik yoshida ko'proq namoyon bo'ladi. O'qishga salbiy munosabatda bo'lgan o'quvchilarning soni o'rtacha hisobga olganda quyi sinflardan o'rta va yuqori sinflar tomon uzuluksiz ortib bormoqda. Bu kichik o'smirlik yoshidagi o'quv psixologiyasining xususiyatlari va uni ta'lim - tarbiya jarayonida etarlicha hisobga olinmaslik bilan va shuningdek, yuqori sinf o'quvchilarini kasb-hunar egallashga va o'qishga yo'llash o'rtasida ko'pincha paydo bo'ladigan ixtiloflar bilan bog'liqdir.

Shunday qilib, o'qitish metodlarini tanlashda o'quvchiga yosh harakteridagi bir qator holatlarini hisobga olishga to'g'ri keladi.

O'qitish metodlaridan foydalanishda yoshni hisobga olib yondoshishning hususiyatlariga yuqorida berilgan baho yana bir xulosani chiqarish imkonini beradi. Balog'atga o'tish yoshdagi o'quvchilar o'qiyotgan sinflarning o'rta guruhida o'quvchilar juda charchaganlarida ularning shu qobiliyatlarini ko'rtarish, ularni o'ta turli, beqaror qiziqishlarini qondirish, ularni yuqori sinflarda yanada intensiv va sermehnat o'qitishga tayyorlash uchun o'qitish metodlarini imkoniyati boricha xilma-xillash mumkin va kerak. O'qituvchi o'qitish metodlarini optimal tanlashni amalda ro'yobga chiqarar ekan, ayni bir yosh guruhining o'zidagi o'qish imkoniyatlari turlicha rivojlangan o'quvchilarning o'qish bilan faoliyatlari xususiyatlarini nazardan qochirmasligi kerak.

O'zlashtiruvchi o'quvchilarda musiqiy qobiliyati, tafakkurning mustaqiligi, rivojlantirish, o'zini-o'zi nazorat qilish malakalari ancha bo'yi rivojlangan bo'ladi. Shunday bo'lgach o'z-o'zidan ma'lumki, ularda o'qish, yozish, musiqa savodxonligi juda past bo'ladi. Musiqaga nisbatan salbiy munosabat ularga tez - tez uchraydi, ko'pincha ularga ongli o'quv intizomi ham bo'lmaydi ⁹.

Tabiiyki, o'quvchi darsda bo'sh o'zlashtiruvchilarga tafovutlab yondoshish vazifasini aniqlayotganda bu holatlarning hammasini maxsus hisobga olish kerak bo'ladi. Bu o'rinda ana shunday o'quvchilarning hayotiy tajribalariga ko'proq urg'u berish kerak, chunki ularda hayotiy tajribalar boshqalarga qaraganda kengroq bo'ladi. Shuning uchun ularni amaliy mashg'ulotlar nazariy mashg'ulotlarga qaragnad (maslan, qo'shiq aytish) ko'proq qiziqtiradi.

Tajribali o'qituvchi ana shu imkoniyatda foydalanib, ularni amaliy ishga kengroq jalb qiladi. Bunig uchun ularning musiqiy faoliyatlarini faol boshqarish, musiqa savodxonligini oshirishda ularni har tomonlama qo'llab quvvatlash mavzuning qiyin joylarida tushuntirish sur'atini bir oz sekinlashtirish,

⁹ Yo'ldosheva, S.X. "O'zbekistonda musiqa tarbiyasi va ta'limining rivojlanishi". Toshkent. 1985 yil.

o'zlashtirishda qiyinchilik tug'ilganda o'quvchilar tomonidan savollar berishni rag'batlantirish zarurdir.

Sinfdagi ko'pchilik o'quvchilarga beriladigan bir qo'shiqni o'rgatishda bo'sh o'zlashtiruvchilarga beriladigan yordamni tafovutlash juda foydalidir. Bunday yordamni turlari juda xilma-xil bo'lishi mumkin. Masalan qo'shiqni o'rgatishda farazlarga bo'lish nafas olish jarayonlari ko'rsatish, dinamik belgilarga amal qilish, qo'shiq mazmuniga mos rasmlar ilova qilish, yaxshi kuylayotgan bolalarga ergashtirish, sof unison hosil qilishni o'rgatish, aniq imkoniyatga erishtirish, to'g'ri tovush hosil qilish, o'qituvchining kuylayotgan vaqtidagi qo'l harakatlari va mimikasiga e'tibor berish, oldinda ketmaslik va orqada qolmaslikni tushuntirish, to'g'ri o'tirish va ashu aytish qoidalariga rioya qilish diktsiyaga e'tibor berish va boshqalar.

Pedagogikada o'quvchilarning o'zlashtirmasliklarining oldini olishga qaratilgan ish metodlari va usullari tizimi ishlab chiqilgan. o'qituvchilar amalada bulardan qanday foydalanmoqdalar. Shu maqsadda maktabdagi o'qituvchilarning 10 ta darsini tanlab tahlil qildim. Natijada darslariga kirilgan o'qituvchilarning ellik foizdan ko'prog'i xatolar ustida shlashni uy vazifalariga kiritmasliklari, bo'sh o'zlashtiruvchilarga uy vazifalarini individuallashtirib bermaganliklari, yangi mavzuni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan materialni takrorlashni tavsiya etmasliklari, o'quvchilarga materialni bayon qilish uchun o'zlari uylarida tuzilgan rejadan foydalanib javob berishga ruhsat etmasliklari aniqlandi. Bu o'qituvchilarning o'ttiz besh foizini o'zlashtirmaslikning oldini olishning vazifalari miqdorini uyg'unlashtirish, ularni belgilangan vaqtda bajarishi uchun tushunarli bo'lishini ta'minlash kabi usullarni qo'llamaydilar, o'quvchilarga mashqlarni bajarishda, masalalarni echishda o'zlarini - o'zlari nazorat qilishni o'rgatmaydilar, doska oldida javob berishga oldindan tayyorlanishga, yozuvlar qilishga, ko'rgazmali qurollardan foydalaishga ruhsat bermaydilar, o'quvchilarning e'tiborini tipik xatolarga qaratmaydilar, bo'sh o'zlashtiruvchilarga darsda mustaqil ishlash davomida tegishli yordam ko'rsatmaydilar.

Tayyorgarligi kuchli o'quvchilar bilan ishlashga kelganda shuni aytish kerakki, darsdagi mashqlar hajini oshirish, ularga ma'lum vaqt ichida bajarish uchun ko'proq miqdorda masala va mashqlar yoki musiqa savodidan topshiriqlar berish, izlanish metodlari va mustaqil ishlash metodlarini keng qo'llash kerak.

Shunday qilib, xilma - xil o'qitish metodlarining imkoniyatlari nisbiydir va bu metodlarni qiyoslashda ular qo'llaniladigan sharoitlarni, xal qiladigan vazifalarning harakterini, mavzu mazmunining xususiyatini, o'quvchilarning yoshi va tayyorgarlik darajasini qat'iy hisobga olish kerak¹⁰.

O'qituvchilarning shu tajribasida o'qitish metodlarining to'g'ri tashlash muammosini ma'lum darajada etarli tushunmaslik hollari uchraydi. Masalan, maktablardan birida biz "chet tillarni o'qitishning eng qulay metodlari" deb nomlangan planshedga e'tibor berdik. Unda, muammoli suhbatlar va o'qitishning texnok vositalaridan foydalanish to'g'risida gap yuritilgan edi . Planshet mualliflari o'qituvchi ish tajribasida aytib o'tilgan metodlardan foydalanishni kengaytirish lozimligini ko'rsatishga intilganliklari shundaygina ko'rinib turibdi. Lekin u yoki bu metodning optimalligi uning atalishi, uning odatdagicha bo'lib qolganligi emas, balki uning dars vazifalari va mazmuniga, o'qituvchi va o'quvchilarning imkoniyatlariga muvofiqligi bilan baholanadi. Eng maqbul tanlangan metodlar qo'yilgan vazifalarni ajratilgan vaqta yaxshiroq xal qilish imkonini beradi.

Darsning tarbiyaviy vazifalarini hal qilish, o'quvchilarda ilmiy duyoqarashni tarkib toptirish uchun o'qitish metodlarini tushunib tanlashga katta e'tibor berish kerak.

¹⁰ Karimova D. "Musiqiy pedagogik mahorat asoslari". Toshkent 2008yil.

1.3. Umumta'lim maktablarida musiqa darslari va unga qo'yilgan talablar

Har qanday fan tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyotining ob'ektiv qonunlar to'g'risidagi bilimlarning yakunidan, jamlanishidan, umumlashgan va ishonarli bilimlar tuzilishidan iborat bo'ladi. Har qanday fanning ajrat turishi va me'yoriy faoliyat ko'rsatishi uchun uning o'zida xususan tushunishning mavjudligi muqarrar shart bo'lib hisoblanadi. Tarbiya, ta'lim va o'qitish fan sifatidagi pedagogikaning asosiy tushunchalaridir.

Tarbiya ijtimoiy munosabatning shunday bir turiki, unda shaxsni yo'naltirilgan xolda shakllantirish maqsadida bir xil toifadagi kishilar boshqa birovlariga ta'sir o'tkazadi.

Ta'lim - tarbiyaning shunday bir jihatiki, u imkoniyat to'plagan ilmiy va madaniy qadriyatlar tizimini o'z ichiga oladi. Ta'lim turli yo'llar orqali olinadi.

O'qitish imkoniyatning ijtimoiy - tarixiy tajribasi muayyan jihatlarning maxsus tayyorlangan shaxs rahbarligida (o'qituvchi, tarbiyachi, professor, instruktor rahbarligida) o'quvchilar tomonidan o'zlashirilishi jarayoni ma'rifiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarni uzviy birlikda ado etuvchi jarayondir.

Musiqiy tarbiya metodikasi pedagogika fanlari tizimiga kirib, unda alohida o'rin egallaydi. Musiqaviy tarbiya masalalari hozirgi zamon pedagogikasida tarbiyaning umumiy muammolar bilan bog'liq holda qaraladi.

Musiqaviy - estetik tarbiya - musiqa tarbiyasiga qaraganda ancha keng tushunchadir. Bu jarayonda musiqa darsi muxim o'rin tutadi, lekin alohida o'rin tutmaydi. Musiqiy tarbiyada musiqani idrok qilish malakalarini faol rivojlantirish, san'at va atrof hayotdagi go'zal narsalarga muhabbat tuyg'usini hamda o'z his - tuyg'ularini musiqa tilida ijodiy namoyon qilish qobiliyatini shakllantirish katta rol o'ynaydi. Musiqiy tarbiya haqida unga keng pedagogik ma'no bergan holda gapiriladigan bo'lsa, ta'lim - tarbiya muassasalri tizimida amalga oshiriladigan butun o'quv - tarbiya jarayonining biror maqsadiga muvofiq oldindan qo'yilgan holda tashkil etilishi tushuniladi. Biror maqsadga qaratilgan, yaxshi tashkil etilgan

musiqiy tarbiyaning maqsadi, mehnati va ijtimoiy faoliyatga va ona vatanning sevisiga doimio tayyor bo'lgan, har tomonlama va garmonik rivojlangan shaxsni tarkib toptirishdan iborat.

Musiqadagi go'zallikni faol idrok etish tafakkur faoliyatini talab qiladi. Musiqa ijodida va idrokida intellektual asosni qaror toptirishdan hech qachon yuz o'girmaslik kerak. Musiqani tinglashda u yoki bu holatlarni xis etib boshdan kechiribgina qolmasdan, balki idrok qilinayotgan materialni farqlaymiz, tanlaymiz, baholaymiz va fikr yuritimiz.

Musiqiy idrokni va didni tarbiyalash. Musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish doimo aqliy va ahloqiy tarbiya bilano'zaro ta'sirda bo'ladi. Musiqiy idrok etish go'zallikni fahmlashdan ko'proq doirani qamrab oladi, go'zallikni fahmlash esa o'z navbatida musiqiy idrok etishni turlaridan biridir. Hamma go'zal narsalarni musiqiy idrok etish mumkin, lekin hamma musiqiy idrok etilgan narsalar go'zal bo'lavermaydi.

Go'zallikda voqelikning ijobiy tomonlari o'z ifodasini topadi. Hayotiy ovqea hodisalarni musiqiy idrok etishimizda turliy ruhiy kayfiyatlarga tushsak, go'zallikni fahm etganimizda esa, faqat rohatlanamiz.

Shuningdek, haqiqiy musiqiy didga ega bo'lish mazkur shaxsning muhim fazilatlaridan biridir. Chunki didda u yoki bu kishlning ruhiy olami namoyon bo'ladi. Demak, sog'lom did uchun kurashish shaxsning insoniy fazilati uchun qayg'urish demakdir. Musiqiy didi barkamol bo'lgan o'quvchi faqat san'at durdonalarini tushunadigan bolagina emas, u hayot go'zalliklarini qaysi shaklda - tabiattdami, odobdami, mehnatdami yoki atrofdagi buyumlardami, nimalarda ko'rinmasin uni qadirlaydigan bo'ladi. U barcha g'oyaviy va ahloqiy tubanlikka zarba berishga tayyor turadi.

O'quvchilarning estetik ruhda tarbiyalashda, ularning badiiy didni o'stirishda ko'pgina fanlar qatori adabiyot va san'atning roli nihoyatda katta. Chunki bolalar ahloq me'yorlarini shakllantirshda, hayotga faoll munosabatlarda bo'lish kabi xususiyatlarini kuchaytirishda musiqa san'atining imkoniyatlari juda

keng. San'at o'quvchilarda yuksak insoniylik tuyg'ularini ortirish bilan birga, ularning ma'naviy yuksalishiga ham samarali ta'sir etadi.

Hozirgi zamon musiqa darsi musiqiy tarbiya va ta'limning o'ziga xos vaziyatlari bilan bir qatorda o'z oldiga quyidagi vazifalarni ham qo'ymog'i kerak¹¹.

Maktabda musiqi tarbiya tizimi ko'pgina elementlardan tashkil topadi, bular musiqa darsi, musiqadan, sinfdan, va maktabdan tashqari musiqiy tarbiya, musiqaning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqas, vokal va xor studiyalari hamda to'garaklari, vokal va cholg'u ansambillari, musiqa maktablari va hokazo. Bu tizimda ommaviy axborot tizimi juda katta o'rin egallaydi. Tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi vositalarning hammasi musiqaviy estetik muhitni tashkil etadiki, bu muhitda qo'uvchilarning musiqa sohasidagi qiziqish va ehtiyojlari vujudga keladi.

Musiqa darsi o'ziga xos faoliyat turlari bilan musiqa asarini tinglash va tahlil qilish, qo'shiq kuylash, musiqa ostida harakatlar bajarish, musiqa ijodkorligi bilan ajralib turadi. Dars jarayonida bu faoliyat turlarini bir - biridan ajratish mumkin emas, chunki ular bir - biri bilan o'zaro bog'langan va ba'zan bir - biriga singib ketgan bo'ladi.

Musiqa fanining vasifasi - bolalarni go'zallikka faol munosabatda bo'lishga, musiqaga ijodiy yondoshishga rnatishdan iboratdir. Bunda biron - bir asarni o'zlashtirib va tushuntirib olish asosidagina emas, balki uning yaratilish tarixini, musiqa nazariyasining asarlarini uning rivojlanish qonuniyatlarini bilish asosida erishish mumkin.

Biroq darsda o'quvchi faoliyatining barcha turlariga musiqani idrok qilish asos bo'ladi. Musiqani tushunish atrofidagi hayotni to'la - to'kis idrok qilish uchun zarurdir, pirovardida san'at asari va hayotdagi estetik narsaning mohiyatiga chuqur kirib borish qobiliyati maktab o'quvchisi shaxsining har tomonlama rivojlanishiga

¹¹ Sharipova G.M. "Musiqa va uni o'qitish metodikasi". T., 2006 yil.

yordam beradi, musiqa darsi ham barcha fanlar qatori o'z oldiga qo'ygan vazifalarini hol qilmog'i kerak va bu vazifalarni qanchali faol va aniq maqsadlarni ko'zlagan holda hal qilsa, maktab o'quvchilariga mintaqaviy ta'lim berish darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Dars maktabdagi o'quv ishining tashkiliy shakll bo'lib, unda o'qituvchi aniq belgilangan vaqt doirasida o'qituvchining doimiy guruhi - sinf bilan qat'iy jadval bo'yicha shug'ullanadi, jamoa bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, fatnni turli fanlarga bog'langan holda o'quv dasturiga muvofiq o'zi belgilaydigan didaktik va tarbiviy vazifalarga erishish uchun xilma - xil metodlardan foydalanadi.

O'qitish jarayoninin o'qituvchi bilan shug'ullanuvchining biror maqsadga qaratilgan, izchllik bilan o'zgarib turadigan o'zaro bog'langan faoliyati deb qarash mumkin. Bu faoliyat davomida shug'ullanuvchilarning ma'lumot olish, rivojlanish va tarbiyalanish vazifalari xal etiladi.

Musiqa darsida o'quvchi bilan o'qituvchining o'zaro munosabat jarayoni shaxsiy aloqaga asoslangan. Musiqa darsida istenosiz barcha o'quvchilarning musiqiy faoliyatlarini yo'llaydi va nazorat qiladi. Shuningdek, o'quvchilarning orasidagi o'zaro aloqa va o'zaro nazoratni qo'llab - quvvatlaydi. O'qituvchining darsdagi ishl barcha o'quvchilarning darsning o'zidayoq o'rganayotgan bilish asoslarini egallashlari, zarur ko'nikma va malakalarni xosil qilishlari uchun zamin yaratadi.

Har bir musiqa darsi o'quvchilarni yangi bilimlar bilan boyitish, ularni ong bilm doiralarini kengaytirish, musiqiy ko'nikma va malakalarning shakllanishi yoki ilgari o'rganganlarini takomillashtirish kerak. O'quvchilar darsdan - darga go'yo pog'onadan - pog'onaga qadam qo'ygandek bilishning cheki yo'q narvonidan olg'a intilib boradilar.

Musiqa darslarida o'quvchilarni musiqa sohasida har tomonlama rivojlantirish nazarda tutiladi, va ularning musiqaviy madaniyatiga zamin yaratiladi.

Musiqa darsi musiqa ijodining quvonchini anglash tuyg'usini beradi., go'zallikka dahldorlik tuyg'usini, kompazitor yoki xalq musiqa asariga jo qilgan

ahloqiy - estetik mazmundan xuzurlanish qobiliyatini shakllantiradi. Darsda ijodiy faoliyatning bir - bir bilan mustahkam bog'langan hamma turlari samarali bo'ladi.

Ayni vaqtda dars o'zining mazmuni, metodlari, fanlararo o'zaro aloqasi va tashkil etishi bilan o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ular ilmiy dunyoqarashni, g'oyaviy e'tiqodni, shaxsni ma'naviy sifatlarini shakllantirib katta tarbiyaviy qiymatga ega bo'lishi zarur.

Darsda o'quvchilarni tarbiyalash, o'qitish, rivojlantirish ularga ta'lim berish birgalikda va o'zaro aloqada amalga oshirilmog'i kerak. Bu musiqa pedagogikasining g'oyat muhim tamoyillaridan biridir.

Maktab o'quvchilarini professionalmusiqa faoliyatiga tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydi. Biroq musiqani tushunish, uni idrok qilish va undan ta'sirlanish qobiliyati har bir o'quvchiga, u kelajakda professional musiqachi bo'ladimi yoki musiqa madaniyatini g'oyat xilma - xil shakllarida musiqaviy estetik faoliyatning asosi bilimlariga, ko'nikma va malaklariga ega bo'lgan yaxshi tayyorlangan tinglovchi bo'lib qoladimi, bundan qat'iy nazar ta'sirda bo'lishi shart¹².

Musiqa darsi ta'lim berishdan tashqari, tarbiyaviy maqsad va vazifalarni ham o'z ichiga olad. Ular o'quv materiallarining mazmuni bilan ham shuningdek, maktab o'quvchilari shaxsini tarbiyalash va kamol toptirishda qaratilgan umumiy maqsadlar bilan ham belgilanadi. Tarbiyaviy vazifalar shaxsining ahloqiy, irodaviy, intellektual emotsional fazilatlarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Dars o'quvchilarni tarbiyalashning uzuluksiz jarayonidagi muayyan bir bosqich hisoblanadi.

O'z navbatida darsning tarbiyaviy vazifalari musiqaviy o'quv ishini tashkil etishga va uning metodikasiga jiddiy ta'sir o'tkazadi. Masalan, shaxsning vazifalari sifatida mustaqillik va bilm faoliyatini shakllantirish darsda ijodkorlik

¹² Ortiqov T. Musiqa o'qitish metodikasi. Toshkent. 2010 yil.

va topshiriqlarga, mustaqil ravishda ishlarning har xil turlariga ko'proq e'tibor berishni taqazo etadi.

Musiqqa darsining o'ziga xos tomoni shundan iboratki, darsda musiqqa ta'limi vazifalaridan tashqari, badiiy ijrochilik vazifalari ham qo'yiladi. Bu birinchi navbatda maktabda musiqadan ta'lim berishni faol shakli bo'lgan jamoa bo'lib qo'shliq aytishga taaluqlidir. Juda ko'hna va chuqur xalq an'alariga ega bo'lgan jamoa bo'lib qo'shiq aytish faqat musiqqa qobiliyatlarini emas, balki karakter sifatini, dunyoqarashini, badiiy didini estetik tuyg'uni ham rivojlantiradi. Jamoa bo'lib qo'shiq aytish darsda olib boriladigan ishlarning xilma - xil shakllarini qo'shiq ijro etishni, musiqqa savodini, musiqani idrok qilishni, musiqqa asboblarida chalish, vokal ijodkorlikni o'zida birlashtiradi.

Hozirgi musiqqa darsi ishning xilma - xil shakllari va axborotga boyligi bilangina emas, balki texnikaviy jihatidan qurollanganligi bilan ham ajralib turadi. O'quv jarayonining mustuhkam asosga ega bo'lishi haqida hozirgi vaqtda qo'yilayotgan talablarga muvofiq musiqaviy - estetik tarbiyaning to'laqonli bo'lishi uchun musiqqa xonasida ovozni yozib oluvchi va qayta eshittiruvchi magnitafon, nota to'plamlari, musiqqa oid kitoblar, ko'rgazmali qurollar, kompazitorlarning portretlari, poektsiya apparatlari, tarqatma materiallar, musiqqa asboblari turkumi bo'lmog'i kerak. Bularning bor bo'lishi musiqqa fanining boshqa o'tilayotgan fanlarga bog'lanishida ham bevosita ko'mak beradi. Musiqqa darsi samarali o'tishi uchun u puxta rejalashtirilgan, dramaturgiya jihatidan izchil qurilgan va ayniqsa, musiqqa bilan etarli darajada ta'minlangan bo'lishi lozim. Musiqqa darsi o'quv fani sifatida o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va ahloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishda, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashda xizmat qiladi. O'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha o'quv fanlari, jumladan, adabiyot, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan bog'lanadi.

Barcha o'quv fanlari qatori musiqiy ta'limda ham davlat ta'lim standartining joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to'laqonli foydalanish

imkonini beradi. Bula ommoviy xalq kuy va qo'shiqlarida xonanda va sozandalarning ijodiy faoliyatlari, maqom, shashmaqom, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatda o'z aksini topadi¹³.

Har qanday dars o'qituvchining maktab o'quvchilari o'quv faoliyati ustidan nazorat qilib borishni taqazo etadi. Bu o'quv materialini tushuntirish va o'zlashtirish harakterini, o'quv va ko'nikmalarining jarayonini ko'z oldiga keltirish imkonini beradi.

Musiqqa darslarining vazifasi - bolalarni go'zallikka faol munosabatda bo'lishga, musiqaga ijodiy yondoshishga o'rgatishdan iboratdir. Hozirgi zamon musiqqa darsi huddi ana shu vazifani xal qilmog'i kerak va bu vazifani qanchalik faol va aniq maqsadini ko'zlagan holda hal etsa, maktab o'quvchilariga faqat musiqiy tarbiya berish darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

Bugungi mustaqillik davrida ta'lim muammolarini hal qilishda, musiqqa o'qituvchisi zamon bilan hamnafas qadam tashlab, musiqqa o'qitish metodlarini tanlashning asosiy mezonlari, axborot texnologiyasi va ilg'or pedagogik texnologiya malakalarini to'liq o'zlashtirish va shular asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etmog'i lozim.

Darhaqiqat o'qituvchilik kasbida turli musiqqa o'qitish metodlarini, bilimdonlik, zukkolik, o'z kasb mahoratini muntazam takomillashtirib borish talab etiladi.

Shuning uchun, musiqqa o'qituvchisini oliy musiqqa san'atning ma'naviy qadriyatlariga yaqinlashtirishning yangi metod va shakllarini izlashdir.

U bir tomondan eskirgan ta'lim musiqqa o'qitish metodlarini, kontseptsiyalarni qaytadan ko'rib chiqish, ikkinchi tomondan musiqqa sohasidagi yangiliklar, musiqqa o'qitishning eng maqbul tizim va ta'lim uslublari haqida

¹³ Omonullayeva D, Nurmatov H. va boshqalar. "Boshlang'ich ta'lim DTS dasturi" 1999 yil

ta'lim berish bilan bog'liqdir. Pedagogik faoliyat yo'liga endigina kirib kelayotgan yosh musiqachi oldidagi ob'ektiv qiyinchiliklar ana shundan kelib chiqadi. U sanoqsiz mualliflik uslublari, bolalarga ta'lim berishning yangi samarali metodlari orasidan yangi samarali metodlarini ommaviy musiqa pedagogikasida qo'llash uchun tanlay bilishi zarur.

Shundan doimo ijodiy izlanish zaruriyati kelib chiqadi, chunki samarali faoliyat olib borish uchun tirishayotgan musiqa o'qituvchisi nafaqat o'z hamkorlari ish tajribalarini o'zlashtirib olishi, balki musiqa o'qitish metodlarini tanlashning asosiy mezonlarini, jamiyatning zamonaviy musiqiy holatiga mos keluvchi ko'p narsalarni qaytadan ko'rib chiqishi, ta'limning yangi shakl va uslublarni izlashi zarur.

Musiqa pedagogikasi sohasida yangiliklarni izlash, oldidan shakllanib kelgan ilmiy izlanish an'alarida erishilgan eng yaxshi musiqa o'qitish metodlarini tanlashning asosiy mezonlarini anglab olishlarini talab qiladi.

Hozirgi kunda musiqa tarbiyasining innovatsion uslublari bo'lgusi musiqa o'qituvchisini faollashtirishni, ijodiy tomondan rivojlantirishni, har xil musiqiy fanlardan olgan bilimlarni keng qo'llashni talab qilayotgan bir paytda, musiqa o'qituvchisi oldida musiqiy ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni kiritish bo'yicha qo'yilgan talablarga muvofiq shakllagan ta'lim vazifalarini amalga oshirish maqsadi turadi.

II bob. Musiqa o'qitish metodlari

2.1. Musiqa o'qitishning og'zaki metodlari

O'qituvchi bilan o'quvchining vazifalarini hal etishga qaratilgan bog'langan o'zaro faoliyati yo'llari va usullarini o'qitish metodlari deb atash qabul qilingan. Metodlar pedagogning asboblaridir. U metodlardan foydalanib bilim beradi. O'quvchilarning ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. *Hamda rivojlanishga har* tmonlama ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli hamma o'qitish metodlarini mukammal

bilishi va ulardan mohirona foydalanish pedagog uchun kasbiy zarurat va vaqtda uning mahorat ko'rsatgichi xisoblanadi.

O'quv materialining bitta mazmunining o'zi ta'limning turli vositalari yordamida turli usullar bilan o'zlashtirilishi mumkin. Shu sababli doimo o'qituvchi oldida muvoffaqiyatliroq va samaraliroq o'qitishga yordam beradigan yo'llarni tanlash muammosi turadi.

Musiq faoliyati turlarini o'zlashtirishning turli shakllari qidirish musiq darsining maqsadlari, vazifalarini anglab olishdan boshlanadi. Masalan, qo'shiq aytish qoidasini tushuntirishdan avval u nima maqsadda o'rgatish uchun yoki ana shu qoida yordamida ularda badiiy didni shakllantirish uchunmi, yohud o'quvchining umumiy nutq madaniyatini oshirish uchunmi, o'rganilayotganini aniq bilishi kerak¹⁴.

Metod o'z tuzilish jihatdan murakkab bo'lib, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining ko'pgina jihatlarini o'z ichiga oladi.

Ta'lim metodlari ko'p jihatdan o'quvchilarning psixologik yosh xususiyatlariga bog'liqdir. Masalan, bolang'ich sinflarida o'qitish metodlarini tanlash o'quvchining xissiy tajribasi asosida tafakkurning abstrakt shakllarini rivojlantirish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Metodlar o'quvchilar organizmining anatomik - fiziologik xususiyatlariga ham bog'liq bo'lib, musiq darslari davomida ularning ish qobiliyatini, charchashini, organizmning nerv, tomir, suyak - mushak, jinsiy tizmlari xususiyatlarini hisobga oladi.

Musiq o'qitish metodlari pedagogikada, maktabda, o'qituvchilar tajribasida tarkib topgan an'analarga ham bog'liq. Masalan, musiq o'qituvchisi individual tus bag'ishlaydigan muayyan metodlardan foydalanishni afzal ko'radi. Unda ko'pincha boshqa mukammalroq ish shakllariga o'tish qiyin bo'ladi. Yoki, aksincha, ish uslubi ilg'or tajribani o'rganish va umumlashtirish uchun asos bo'lib qoladi.

¹⁴ Omonullaev D. "Maktabda musiq tarbiyasi metodikasidan lektsiyalar kursi" T.1990 yil.

O'qitish metodlari nihoyatda xilma-xildir, ularning ko'pchiligida o'xshash xususiyatlar bor, shu sababli guruhlarga birlashtiriladi. Metodlarning klassifikatsiyasi shu tarzda kelib chiqadiki, bu narsa o'qituvchiga o'uvchilarning o'quv metodlarini egallash shakllaridan o'xshash va tafovut qilishdagi jihatlarni chuqurroq anglab olishda ham o'z o'qituvchilik faoliyatini muvaffaqiyatliroq tashkil etishda yordam beradi. Hozirgi vaqtda ta'lim nazariyasi va amaliyotida bilim olishning asosiy manbai bo'lgan o'qitishning og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlari keng tarqalgan.

Agar o'quvchilar asosiy o'quv axborotini o'qituvchining og'zaki mulohazalari va isbotlari jarayomida yoki qo'shiq matnlari asosida olsalar, bunday metodlar og'zaki tushuntirish, hikoya, suhbat, izoh, sharx va hokazo metodlar jumlasiga kiradi. Bunda asosiy narsa fikr bayon qilishning to'g'ri tizimidir. Bu metodlar yoki tushunchalarni shakllantirish va o'zlashtirish jarayoniga yoki xissiy obrazlarni shakllantirish va tasavvur qilishga qaratilgan bo'ladi.

Musiqada o'qituvchining so'z mahoratiga alohida talab qo'yiladi. O'qituvchi o'zining asar haqidagi badiiy kirish so'zi bilan o'quvchilarni ajoyib va sehrli san'at dunyosiga kiradi, qiziqarli hikoya va suhbat bilan o'quvchilar diqqatini musiqa obrazlariga yo'naltiradi.

Musiqada o'qituvchisi so'zdan foydalanish sohasidagi shaxsiy pedagogik texnikasini takomillashtirish ustida hamisha ishlashga to'g'ri keladi. Quyidagilar ularning asosiy mezonlari qatoriga kiradi.

- So'zlarni aniq talaffuz qilish yaxshi diktsiya;
- Nutqning sur'atini va ohangini mohirona tartibga solish, intonatsiyalarning rang - barangligi;
- Pauzalarda mantiqiy urg'ularni o'z vaqtida qo'llash;
- Bayon qilish uslubining emotsionalligi;
- Imo - ishora va mimikaning egallanganligi, ularning nutq mazmuniga o'z vaqtida o'ylab va me'yor bilan kiritishi;
- Talabalar oldida o'zini qat'iy va ayni vaqtda erkin tutishi.

Hikoya. Hikoya tinglanadigan musiqa asari yoki o'rganadigan qo'shiq mazmunini izchilik bilan obrazli qilib, chiroyli bayon qilishdir. Sujetning borligi va uning vaqt jihatdan rivojlanib borishi hikoya uchun harakterlidir. Hikoya qilish jarayonida tinglovchilarning tuyg'ulari va kechinmalariga ta'sir etiladi va bu bilan ularning o'rganayotgan asarga bo'lgan munosabati shakllanadi.

Hikoya - bu o'qituvchining musiqa asari haqidagi jonli, obrazli va yorqin hikoyaviy bayonidan iboratdir. Hikoya qisqa, obrazli va qiziqarli bo'lib, undagi bayon mazmuni asosiy maqsad - o'quvchilarni asar obrazini badiiy tasavvur etishga va u vosita bilan musiqa asarini badiiy idrok etishdan iboratdir.

Hikoya metodi og'zaki bayon qilishda musiqa asarining mazmunini o'quvchilarga savol berib uzmasdan bayon qilishni nazarda tutadi. Faqatgina qiziqarli va obrazli qisqa hikoya qalbida o'rganiladigan asarga nisbatan qiziqish va muhabbat uyg'ota oladi.

Pedagogning yorqin, jonli hikoyasi, u keltirgan misollar va faktlar o'quvchilarni o'z - o'zini tarbiyalashga undaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tafakkurning obrazlilik xos bo'lganligi uchun ular bilan ishlashda hikoya metodini qo'llash, ayniqsa, maqsadga muvofiqdir¹⁵.

Biz hozirgi darsdagi o'qitish metodi sifatida o'qituvchining hikoyasi haqida gap yuritdik. Ammo hikoyadan o'quvchilarning bilimlarini tekshirish vositasi sifatidan ham foydalaniladi. U holda gap o'quvchilardan yakka holda so'rash vaqtidagi hikoyalari to'g'risida boradi. O'qituvchi o'quvchilardan dokladchilarni oldindan tayyorlanganda, o'quvchilarning hikoyalari dars davomida qo'llaniladi. O'quvchilar bunda eng muhim hikoya qilish vaqtida muayyan rejadan foydalanish mazmun elementini mantiqan birma -bir ochib berish; hikoyaning ma'lum bosqichini tugallar ekan, yakunlovchi jummalarni tushuntirishning yangi bosqichi bilan bog'lay olsin.

¹⁵ Abralova M., Galieva D., Qo'shaev A. Musiqa. 3-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. T., 2008 yil.

Tegishdi nuqta madaniyatini ta'minlash o'quvchilarga ortiqcha so'zlar, siyqasi chiqqan iboralardan qutilishdan mohirona maslahatlar ko'magida yordam berish, aytilgan har bir mustaqil fikr, mulohaza, so'zlarning, o'ylab topilgan yangi fikrlarning originalligi uchun rag'batlantirishlar muhim ahamiyatga ega. Nutq o'stirish o'quvchilarning shaxsini intellektual rivojlantirishda o'ta muhim ahamiyatga molik vazifa bo'lib, u faqat musiqa o'qituvchilarini emas, balki barcha o'quv fani o'qituvchilarning ham vazifasi ekanligini unutmash kerak.

Suhbat. Suhbat o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatning jonli, faol savol - javob shakli. O'qituvchi savol berish bilan juda ham rang - barang o'quv vazifalarini hal etish o'quvchilar bilimni aniqlash, ularni umumlashtirish va tizimlashtirish, yangi bilimlarni o'zlashtirish vaqtida o'quvchi tafakkurini boshqarish, o'z tarbiyalanuvchilarining bilish kuchi va qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniga ega bo'ladi. Bunda o'quv materialini bolalarning musiqa haqida bilm doirasi va amaliy tajribalari bilan bog'lanib o'zlashtiriladi. Suhbat jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning fikriy faoliyatini kuchaytiradi, musiqa haqidagi bilm doirasini yangi ma'lumotlar bilan boyitadi.

Tushuntirish. Bu ilmiy isbotlash metodi sifatida musiqa darslarida qo'llaniladi. U musiqa savodi, musiqaning tuzilishi va rivojlanishi kabilarni qo'llaniladi tushuntirish o'rganilayotgan qo'shiq, musiqa savodi va undagi qoidalar va musiqa bilan harakatning mohiyatini ochib berishga qaratilgandir. Musiqiy tarbiyada u doimo tushuntirilganlarni nima uchun aynan o'qituvchi talab qilgan usulda bajarilishi zarurligi sabablari va shartligini ochib berish bilan bog'langan. Masalan, o'qituvchi musiqa savodidan biror bir mavzuni yoritayotganda. Uning ham ilmiy asosda, ham hayotiy misollar orqali, sodda yo'llar bilan o'quvchilarga tushuntirib berish kerak. O'qituvchi tomonidan tushuncha berilayotgan vaqtda nutqqa "chunki" so'zni kiritish tushuntirish metodi uchun harakterlidir.

Tavsif. Tavsif musiqa bilan bajaraladigan harakatlarning belgisi, sifatleri yoki ularning izchiligi haqidagi qo'llanmani o'z ichiga oladi, lekin musiqiy harakatning aynan shunday harakterini shart qilib qo'yuvchi sabablari

ko'rsatilmaydi. Tushuntirishga nisbatan tavsif go'yo uning soddalashgan shakli hisoblanadi.

Musiqqa tajribasida harakat amallari yoki ularning elementlari o'quvchilarga etarlicha yaxshi ma'lum bo'lgan yoki yangi harakatlarning bajarilish yo'llari juda soddaligi tufayli batafsil taxlil qilinmasa ham bo'ladigan hollarda tavsifdan foydalaniladi.

Sharxlash. Bu o'quvchilarning musiqiy idrokini rivojlanirishda darsning musiqqa tinglash qismida asosan musiqqa o'qituvchisining badiiy nutqi orqali amalga oshiriladi. O'qituvchi musiqqa darsiga tayyorgarligi jarayomida tanlangan musiqqa asariga va uning mazmuniga mos adabiy matn tayyorlaydi. Musiqqa va ifodali o'qilgan matn bir vaqtning o'zida magnit lentasiga yoki diskka yozib olinadi. Bunda o'qituvchining vazifasi yangrayotgan musiqqa asarini va uning mazmuni hamda harakterini, unda aks etayotgan voqeylikni bevosita va bilvosita sharqlab beradi. Sharhlash musiqqa o'qituvchisidan katta ko'tarinki ruhda tayyorgarlik ko'rishni talab etadi. Agar musiqqa o'qituvchisida badiiy o'qish qobiliyati bo'lmasa, unda adabiyot o'qituvchisi yoki boshqa talantli o'qituvchi nutqidan foydalanishi mumkin. Musiqqa asarini sharhlash orqali o'quvchilarga bunday taqdim etish ularda asarga nisbatan yaxshi taasurot qoldirishga yordam beradi¹⁶.

Darsda og'zaki metodlardan foydalanishda o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ayta olishlari, ashulalar, she'rlar, badiiy asarlardan parchalar ijro etish uchun keng imkoniyatlar ochib berish kerak.

Shunday qilib, maktablarda qo'llanilayotgan ta'lim metodlari og'zaki uslubning asosiy turlarini ta'riflab berdik. O'qituvchining vazifasi bu to'plangan metodlarni faqat egallabgina qolmasdan konkret vaziyatdan ularning har biridan oqilona foydalanish, o'sha vaziyat uchun aynan mos variantlarni o'ylab topish, ularni boshqa metodlar bilan mohirona qo'sha oishdan iboratdir.

¹⁶ "Maktabda musiqaviy tarbiya" (musiqqa o'qituvchilari uchun metodik tavsiyalar). Toshkent. 1991 yil.

Og'zaki metodlar endilikda ko'rgazmali va boshqa metodlar bilan ko'proq qo'shib olib borilayapti. Bu hikoya, suhbatlar va leksiylarning samaradorligini oshiradi. Ovozni yozib oluvchi va ovozni qayta eshittiruvchi apparaturalarni og'zaki metodlarning ta'lim - tarbiyaviy ahamiyatini oshiradigan alohida qimmatli vositalar qatoriga kiritish kerak.

Og'zaki metodlarni qo'llash o'quvchilar nutqini rivojlanishiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli maktablardagi o'qitish amaliyotida o'qituvchilarning o'quvchilar bilan, shuningdek, o'quvchilarning bir - birlari bilan og'zaki muomalada bo'lishlarining salmog'ini oshiradi. O'qitishning og'zaki metodlari to'g'risida gapirar ekanmiz, o'quvchilarning o'quv materialini ustida uy ishlarini bajarish vaqtida ularning rolini oshirish zarurligini ko'rsatib o'tishimiz kerak. O'quvchilar odatda, uy vazifalarini indamay bajaradilar. Vaholanki, uy vazifalarini bajarish vaqtida sharhlashdan foydalanib, darslik matnini yodlanayotganda qo'shiqlarni ovoz chiqarib kuylash o'quvchilar nutqini rivojlantirishga ko'maklashadi. Uyga berilgan o'quv materialini o'zlashtirishda o'zini - o'zi nazorat qilish uchun ovoz chiqarib qayta hikoya qilishdan ayniqsa foydalanish mumkin. Bu o'rinda albatta darslik, matnining so'ma - so'z yodlab olish xavfi ham bor va buning oldini olish kerak, lekin shu narsa mutlaqo ravshanki, uyga berilgan vazifada o'quvchilar nutqini o'stirish maqsadlari uchun oqilona foydalanish mumkin.

Darslarda og'zaki metodlardan foydalanishda o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ayta olishlari, she'rlar, qo'shiqlar, badiiy asarlardan parchalar ijro etish uchun keng imkoniyatlar ochib berish kerak.

O'qitishning og'zaki metodlari tarbiyaviy ta'sirini kuchaytirishga alohida ahamiyat berish zarur. O'quvchilarda musiqiy faoliyatlar mazmunini asoslash, taqqoslash, bir - biriga qarama - qarshi mahoratini oshirish uchun metodlarning rolini ko'rsatish lozim.


O'qituvchining so'zi faqat axborot berishdan iborat bo'lmay, balki ishontiruvchi, asoslovchi, isbotlovchi ta'sirchan kuchga ega bo'lishi kerak. O'qituvchining so'zi emotsiyalar, bayon qilinadigan mavzularga shaxsiy

munosabat bilan yo'g'rilgan bo'lishi lozim. Bularning hammasi o'qitishda og'zaki metodlarning tarbiyaviy ta'sirini kuchaytirish imkonini beradi.

Кўргазмали
метод

Сўзлаб
бериш
методи

Амалий
методи



2.2. Musiqa o'qitishning ko'rgazmai o'qitish metodlari

Ko'rgazmali metodlar deganda ta'lim jarayonida qo'llaniladigan ko'rgazmali qurollar va texnika vositalariga ko'p darajada bog'liq bo'lgan o'quv materialini o'zlashtirish shakllari tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, ta'limning ko'rgazmali vositalari musiqiy bilimlarni o'rganish va o'zlashtirish harakterini belgilaydi¹⁷.

Ta'limning bunday metodlaridan foydalanilganda o'quvchilarning musiqa darsida olgan bilimlari ko'rgazmali vositalar yordamida shakllanadigan yoki esga tushuradigan xissiy obrazlarga, tasavvurlarga bog'liq bo'adi. Og'zaki tushuntirish va kuzatini tashkil etadi, tasavvurlarni bir maromga solishda, ularni o'rgailayotgan musiqa mavzusi g'oyasi bilan bog'lashda yordam berida. Ko'rgazmali qurollar bo'lmasa, og'zaki izohning uncha foydasi bo'lmaydi.

Ko'rgazmali vosita sifatida musiqa asarining nota yozuvi, asarning ritmi yoki tempini aniqlashda foydalaniladigan grafik chiziqlar, musiqa ostida harakatlar, asar mazmuniga mos rangli rasmlar yoki ashyolar musiqa darsida namoyish qilish ko'rsatilish mumkin. Hozirgi vaqtda o'quv jarayonida turli xil texnika vositalari. Kino va boshqa proeksion apparatlar tovush yozish apparatlari va boshqalardan foydalanib namoyish qilish keng tarqalmoqda.

Ko'rgazmali qurollar turlicha ahamiyatga ega bo'ladi. Ular bir holda faqat namoyish qilinadi. Ikkinchi holda esa obstraksiyani shakllantirish jarayonini engillashtiradi. Ko'rgazmali qurollar yordamida vujudga keltiriladigan aniq hissiy obrazlarga tayanish obstrakt qoidalarni o'zlashtirish jarayonini engillashtiradi, bilimlarning tushunarlilik darajasini oshiradi. Masalan, nota haqida dastlabki tushuncha berish paytida nota tayoqchalari, applekatsiyalar, rasm chizilgan kartonlar va hokazolardan foydalaniladi.

¹⁷ Babanskiy Yu. "Hozirgi zamon umum ta'lim maktabida o'qitish metodlari". Toshkent, "O'qituvchi", 1990 yil.

Ko'rgazmali qurollar, ayniqsa, musiqa savodidan olingan bilimlarni tizimga solishda va boyitishda, shuningdek, o'quvchilarning fikr yuritish faoliyatini faollashtirishda yordam beradi.

Ta'lim jarayonida ko'rgazmali quroldan musiqa o'qituvchisining biror og'zaki bayonini yoki izohsiz foydalanishni tasavvur qilish qiyin. Ko'rgazmali vosita hamisha o'quvchining so'zi bilan o'zaro aloqada va muayyan munosabatda bo'ladi.

O'quv jarayonida ko'rgazmallik tamoyili qo'llashni muhimligini musiqa darsi jarayonida o'rganayotgan mavzu va musiqa asarlarini hissiy idrok etishga, ularni "jonli mushohada" qilishga, bilish faoliyatida aniq va mavhum, hissiy, mantiqiy va nazariy elementlarning birligiga katta o'rin beruvchi nazariya nazarida tushuntirish mumkin.

Musiqa asarlarini ko'rgazma vositalari orqali idrok etish katta imkoniyatlarga egadir. Eslab qolishda ko'rgazmalilikning o'zi ham, balki ularning nutq va amaliy faoliyat bilan biriktirishi eng yuqori samaradorlikka ega bo'ladi. Bu o'qitish metodlarining optimal birikmasini izlash zarurligidan dalolat beradi.

Ana shu aytilganlarga ko'ra bilishni o'qitish jarayonidagi yakka tarzda yo'lini hissiy hamda nazariy bilishning haqiqiy birligi sifatida rejalashtirish va tashkil etish kerak.

Musiqa darsda o'qitishning ko'rgazmali metodlarni qo'llash optimallik mezoniga muvofiq kelishligi uchun musiqa o'qituvchisi ularni tanlayotganda bir qator talablarga rioya qilishi kerak.

Ko'rgazmali metodlarni tanlashda ularni quyidagi didaktik vazifalarni ancha muvaffaqiyatli hal qilishi nazarda tutiladi.

- o'quvchilarga musiqani idrok etishda ko'rgazmali - obrazli tafakkurni rivojlantirishga yordam berishligi;
- musiqiy faoliyat turlarini o'zlashtirishda diqqatni faollashtirish vositasi rolini bajarishligi;
- musiqa savodidan olgan bilimlarini konkretlashtirishga imkon berishligi;

- o'rganilgan mavzularni plakatlarda, grafik chiziqlarida, rasmlarda va boshqalarda aniq qilib tizimlashtirish va klassifikatsiya qilish;
- musiqa bo'lgan qiziqishni rag'batlantirish, samarali bilim olish uchun ko'rsatmalar yaratish metodlari rolini bajarish;
- musiqa fanidan o'quv materialinig qanchalik o'zlashtirganligi haqida konkretlashtirilgan shaklda ma'lumot olish imkoniyatini beradi.

Bu aytilganlardan ko'rgazmalilik qancha ko'p qo'llanilsa, shuncha yaxshi bo'lar ekan, degan ma'no kelib chiqmasligi kerak. Chunki ko'rgazmalilikni optimal qo'llash, bu unday maqsadga muvofiq foydalanish degan ma'noni bildiradi. Shuning uchun ham musiqa o'qituvchisi dasturda va metodik qo'llanmada keltiriladigan namoyish qilishni tavsiya ro'yxatidan, birinchi navbatda, darsning asosiy vazifasini hal qilishga o'rganiladigan mavzuning muxim masalalarini o'zlashtirishga bevosita yo'llanganlarini tanlab olish kerak. Ko'rgazmali vositaga darsning davomida asosiy e'tibor beriladi u puxtaroq tahlil etiladi, asosiy xulosalar ular yuzasidan qilinadi. Bir mavzudagi ikkita ko'rgazmali vositadan qo'yilgan vazifani yaxshiroq va vaqt sarflab hal qiladiganini tanlash kerak ¹⁸.

Shuni unutmaslik kerakki, namoyish hajmini oshirib yuborish vaqtni ko'p sarflashga olib kelibgina qolmay, balki o'quvchilar e'tiborini o'rganilayotgan materialning mohiyatidan ham chalg'itadi.

Ko'rgazmali metodlarni tanlashda tegishli sinfnig xususiyati, sinfdagi o'quvchilar tafakkurlarining ustun tipi og'zaki mantiqiy yoki ko'rgazmali obrazli ekanligi hisobga olinadi.

O'quvchilar qo'yilgan savollarga javob kutar ekanlar, ko'rgazmali axborot ustida faol fikr yuritadilar, ko'tarilgan muammolarni hal qilish yo'lini o'zlari qidiradilar va shuning uchun ham o'quv materialini faol o'zlashtiradilar. Ko'rgazmali qurollarni maqsadsiz namoyish qilaverish musiqa darslarida juda ko'p

¹⁸ Umumiy orta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi 7- maxsus son. Musiqa T., 1999 yil.

vaqtni oladi. Va hatto darsning umumiy maqsadiga erishish nuqtai nazaridan zararli bo'lib ham chiqadi.

Musiqqa harakatlanuvchi melodik va garmonik tovushlardan iborat tovushlardan iborat bo'lgan san'atdir. Uni faqat eshitish organi orqali tinglab idrok etish mumkin. Bunda ko'rish asosiy rol o'ynamay, balki doskada ifodalanadigan nota yozuvlari, plakatlar, jadvallar, o'qituvchining dirijorlik ifodalari, raqs harakatlari va boshqalar musiqa jonli va aniq idrok etish yoki ijro etish uchun yordam beradi. Eng muhimi, idrok jarayonida o'quvchilarda musiqa "oqimi" da kuzatib borishga va shu bilan musiqa asosida nimalar yoki qaysi obrazlar ifodalanganini ilg'ab olishga o'rgatish zarur. Demak, musiqa boshqa san'at turlaridan farqlanib, darsda ko'rgazmali materiallardan darslik ikkinchi darajada foydalanishni taqazo etadi¹⁹.

Musiqqa mazmunini, obrazlari yoki sujetlarni ifodalovchi suratlar, kartinalar ko'proq boshlang'ich sinf o'quvchilarini qiziqtiradi.



Amalda ko'proq harakatlanuvchi masalan, dirijorlik, musiqa o'lchovini taklash, chalib ko'rsatish, raqs, o'yin, kuy harakati registr va ritmik sur'atni doskaga grafik chiziqlarda ifodalash kabi ko'rgazmali vositalardan foydalaniladi.

Ko'rgazmalilik metodlari birgalikda o'rganilayotgan harakat haqida har har tomonlama va to'liq hissiy tasavvur hosil bo'lishini ta'minlashi kerak.

Musiqqa darslarida ko'rgazmalilikdan foydalanishning umumiy qoidalari quyidagilardan iborat:

- ko'rgazmalilikni qo'llash maqsadi va bunda o'rganuvchilar oldida qo'yiladigan o'quv vazifasi o'quvchilarga ma'lum bo'lishi kerak.

¹⁹ Omonullaev D. "Maktabda musiqa tarbiyasi metodikasidan lektsiyalar kursi" T. 1990 yil.



2.3. O'qitishning amaliy metodlari

Amaliy metodlar o'quvchilarning mashqlar, shuningdek, tajriba (laboratoriya) va amaliy ishlar ko'rinishidagi xilma - xil faoliyatdan iboratdir. Bu metodlar yangi bilimlarni egallash va avval olgan bilimlarni mustahkamlashga hizmat qilishi mumkin, lekin ularni asosiy vazifasi - olingan bilimlarni amalda turli sharoitlarda qo'rilashga o'rgatish hamda o'quvchilarga ko'nikma va malakalar hosil qilishdir.

Amaliy metodlar vositasida o'quvchilarda vokal - xor malakalari, musiqaning tuzilishi hamda ifoda vositalarini taxlil etish, uning janr va shakllarini aniqlash hamda nota yozuvini o'rganish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish uchun qo'llaniladi. Masalan, vokal - xor malakalarini rivojlantirida nota yozuvini yoki musiqaga qadam tashlashni o'rganishdan asosan mashq metodidan ko'proq foydalaniadiki, ular har xil faoliyat turlarida qo'llaniladi.

Amaliy metodlarga mashqlar ham kirishini yuqorida ta'kidlab o'tdik. Ularni bajarishda o'quv axborotlarini shunchaki og'zaki yoki ko'rgazmali idrok qilish sodir bo'libgina qolmay balki olingan nazariy bilimlarni amaliyotda bevosita qo'llash amalga oshiriladi. Amaliy mashqlar metodidan foydalanilganda olingan nazariy bilimlarni amalda yaxlit qo'llashni to'liq darajada ta'minlash imkonini beradigan mashqlar tizimini tanlash juda muhimdir. Agar, masalan, birinchi sinflarda musiqa savodidan nota yozish qoidalari o'zlashtirilayotgan bo'lsa, u holda mashqlar tizimi bu barcha qoidalarining amaliy qo'llanishini to'liq qamrab olishi kerak. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilariga notaning tayoqchasini yozish qoidasi, bosh qismining yozish qoidasi, bosh va tayoqchasini qo'shib yozish qoidasi, bayroqchani yozish qoidasi va notaning uchala qismini qo'shib yozish qoidasi nazarda tutiladi²⁰.

Mashqlar tizimiga yaxlitlikdan tashqari mantiqiy izchil talabi ham qo'yiladiki, bu, masalan, notalarni nota yo'li chiziqlari orasiga, chiziqlarga, birinchi chiziq ostiga, beshinchi chiziq ustiga, qo'shimcha chiziqlarga yozish kabi

²⁰ Qodirov R.G. "Boshlang'ich sinflarda ko'p ovozli kuylash". T., 1997 yil.

mashqlarni har bir oldingi mashq keyingi mashqni o'zlashtirishga tayyorlashga yordam beradigan qilib joylashtirilishini talab etadi. Mantiqiy izchilikni bezash bilimlarni o'zlashtirish va mustahkamlash samaradorligini pasaytirishga olib keladi.

Mashqlarni bajarishda o'qitish metodlarining bu turini qo'llashning samaradorligini oshirishning ta'minlovchi quyidagi qoidalarga rioya qilish zarur. O'quvchilar oldiga bajariladigan mashqlarning aniq maqsadini: mashqlarni bajarish davomida qanday bilimlarni qo'llash, nimani mustahkamlash, mashqni bajarish davomida qanday bilim va malakalarni hosil qilish zarurligini qo'yish kerak.

Vokal-xor ishlarida ashulachilik nafasi, ovoz xosil qilish, talaffuz, soz va ansambil malakalarini rivojlantirishga doir metod va usullardan keng foydalaniladi. Bunda musiqa asariga dirijorlik qilish, qo'shiqlarni takrorlab kuylash, asarlarni musiqiy tuzilishi jihatidan taqqoslash, ashulani kuylab ko'rsatishi, vokal mashqlari va boshqalardan foydalanish nazarda tutiladi.

O'qitishning amaliy metodida vokal xor malakalari musiqa fani dasturida ko'rsatilgan ashula repertuari orqali hamda o'z oldiga biror tor doiradagi maqsadni qo'ygan maxsus vokal-xor mashqlari orqali hosil qilinadi.

Ko'pincha musiqa o'qituvchilari vokal - xor mashqlarini vaqtni bekorga oladigan narsa deb unga nazar - pisand qilmaydilar, qo'shiq ustida olib boriladigan ishning o'zi o'quvchilarga vokal tarbiyasi berish uchun etarli deb hisoblaydilar. Bunday qarashlar bilan kelishib bo'lmaydi. Musiqa o'qituvchisi maxsus mashqlarni tanlashda qancha ijodkor bo'lsa, u o'z maqsadiga shuncha tezroq erishadi.

Vokal-xor mashqlari har bir musiqa darsidan ma'lum o'rin olishi kerak. Bu mashqlar juda xilma-xil bo'lishi mumkin, lekin hamma vaqt bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish lozim. Vokal-xor mashqlari va mashq-qo'shiq kuylash amaliy mashg'ulotning muhim vositasi hisoblanadi.

Labaratoriya va amalaiy ishlar o'quvchilarning o'qituvchilar rahbarligida bajariladigan juda xilma-xil mustaqil faoliyat turlaridan iboratdir. Bu fizika va

ximiya darslarida tajribalar o'tkazish, geografiya, geometriyadan joyida turli xil topshiriqlarni bajarish bo'lishi mumkin.

Musiqa darslarida ham o'quvchilar musiqa ostida harakatlarni bajarish yo'llari yoki musiqaviy o'yinni olib borish taktikasi to'g'risida mustaqil bilim olishlari mumkin.

O'quvchilarning yil davomida tantanavor, bayramona yoki yumshoq, ravon yurishni, harakat harakterini o'zgartira turib ritmli tarzda bir oyoqdan ikkinchi oyoqdan ikkinchi oyoqqa sakrashni, kichik xalq raqslari va bolalar o'yinlarini safda yurib o'ynashni, o'yinli qo'shiq asosida intsenirovkalar qo'yish va o'yinlar uchun harakatlarning yangi variantlarini o'ylab topish, raqs harakatlari elemaentlarini qo'shib olib borishni musiqa harakteriga muvofiq ravishda bajarishga o'rgatiladi.

Yil oxirida bolalar musiqa, musiqali obrazlarning turli-tuman harakteriga mos holda ma'noli va ritmik harakat qilishni, polka, o'zbek xalq raqslariga oid o'yin harakatlarini bajarishni, raqsga tushish va qizlar bilan harakatlar qilishni ma'noli hamda ritmik holda ijro etishni uddalay olishlari kerak²¹.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari musiqali o'yinlarga ham juda qiziqadilar. Bolalar uchun berilgan ko'p asarlar mazmunida o'yin metodidan foydalanish mumkin. Masalan, T.Ortiqovning "Xivich otim o'ynatib" asarining chaqqon, jadal va sakrama ritmlari, shuningdek, o'zbek xalq kuylari "Asp bo'laman" ohangi ostida bolalar qo'llarini oldilariga musht qilib, gorizantal ko'tarib, joylarida sakrab "Ot choptirish" o'yinining jon dillari bilan bajaradilar.

Xivich otim o'ynatib

Kompozitor J.Najmiddinovning "Bolalar va g'ozlar" qo'shig'ini kuylashda sinf bolalari ikki guruhga bo'linadi, birinchi guruh "bolalar" va ikkinchi guruh esa "G'ozlar" rolini bajaradilar. "G'ozlar" ikki qo'llarini ikki tomondan gorizantal ko'tarib g'ozlar uchishini "qanot" qoqib ifodalab kuylaydilar.

²¹ Ortiqov T. Musiqa o'qitish metodikasi. Toshkent. 2010 yil.

Ikkinchi ijroda rollar almashadi. Ba'zi asarlarga doir o'yin harakatlari sinfda bajarish qiyin. Unda bolalar ularni kichik-kichik guruhlarda sinf sahnesida bajarib, umumiy o'yinni esa ochiq xavoda yoki kichik zallarda bajarishlari mumkin. O'yining mazmuni, harakat turlari va bajarish tabiatini mahorat bilan olib borish hamda qiziqarli o'tkazish o'qituvchidan ijodkorlik talab etiladi.

Dars jarayonida bajarilayotgan har bir harakat turining badiiy- ifodaviy sifatini belgilash va sinfda muhokama etib baholash, faol o'quvchilarni ruhlantirib borish lozim. Yaxshi o'rganilgan raqs namunalarini chorak oxirida o'tkaziladigan kontsertga mo'ljallab qo'yish mumkin.

Musiqaviy o'yin asosan boshlang'ich sinflarda yaxshi natija beradi. Sinfda kichik musiqali o'yinlar o'rganilsa, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda sinfda o'rganilgan va keng maydon talab etuvchi kuy va qo'shiqlar amaliy ijro eshitiladi²².

Ishning yaxshi tekshirilgan metodlari - ko'rsatish va og'zaki tushuntirish qatoriga yangilari qo'shiladi. Musiqa o'qituvchisi o'z darslarini shunday rejalashtirishi lozimki, u har bir darsda o'zbek xalq cholg'u asboblaridan na'munalar olib kirsin. Bola o'ziga berilgan asbobni o'qituvchi ko'magisiz chalish, u yoki bu asboblar chalishni izchilligini eslash, ijodiy topshiriqlar bajarish va shu kabilar tavsiya qilinadi.

Ilk bosqichdayoq bolani ansambilda ishtirok etishi uchun zarur bo'lgan hakorlikdagi uyg'un harakatlarga o'rgatish lozim. Shu maqsadda o'ziga xos "ritmik orkestrlar" tuzilib, unda bolalar chapak chalib, oyoqlarini tapillatib, tayoqchalar, bo'lib yoki mayda tosh, no'xot to'ldirilgan qutichalarni taqillatib chalishadi. Bu erda ham turlicha ovoz berish shakllatiriladi.

Amaliy metodning asosiy sharti bajarilgan mashqlar, amaliy ishlar tahlili va ularni baholashdir. Darsda musiqaviy o'quv ko'nikmalari va malakalarida ijobiy va salbiy xislatlar bo'ladi. Shuningdek, o'quvchilar yo'l qo'yadigan tipik xatolar

²² Konnorova Ye. Ritmika Toshkent. 2007 yil.

ham namoyon bo'ladi. Lekin sinfda yaxshi ishlarni namoyish qilish kerak. Ijobiy namuna asosida o'qitish afzalroqdir. O'quvchilar ayniqsa, o'smirlar o'z ishlarining xatolari yomon misol tariqasida butun sinfga ko'rsatilsa, ular juda xafa bo'ladilar. Agar ko'nikmani shakllantirish shartlariga rioya qllinsa, o'qitishning amaliy metodlari o'quv materialining muvaffaqiyatli egallanishiga olib keladi.²³



²³ Konnorova Ye. Ritmika Toshkent. 2007 yil.

Musiqali ritmik harakatlar bajarishga doir metodik tavsiyalar

O'quvchilarning aqliy, nafosat va jismoniy rivojida raqs, musiqali o'yinlar va musiqaga mos harakatlar bajarish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda musiqa madaniyati darslarida, musiqaga mos harakatlar bajarish quyidagi vazifalardan iborat:

— o'quvchilarning musiqiy uquvi, ayniqsa, xotirasi, ritm tuyg'usi musiqaga mos harakatlar yordamida yaxshi rivojlanadi. Har qanday harakat turi musiqiy asarning sur'ati va ritmi ostida bajariladi, harakat bilan bog'liq bo'lgan musiqiy ohanglar bola xotirasida turg'un saqlanadi;

— raqs va musiqiy harakatlar bolada harakatchanlik, chaqqonlikni rivojlantirib, qomatining to'g'ri o'sishiga va badanini chiniqtirishga katta yordam beradi;

— musiqiy asarlar o'quvchilarda turlicha emotsional hislar uyg'otib, turlicha kayfiyatlar hosil etib, ularning ongida o'ziga xos obrazlar yaratadiki, bolalar asar mazmunini turli harakatlar va ishoralar bilan ifodalashga harakat qiladilar.

Demak, musiqaga mos harakatlar o'quvchilarning aqliy va nafosat qobiliyatini rivojlantirish bilan birga irodasini ham rivojlantiradi. Masalan, marsh — o'quvchida g'ayrat va tetiklikni, raqs — ajoyib ichki his-tuyg'ularni, kechinmalarni hosil etib, raqsga tushishga undaydi va zavqlantiradi.

Musiqiy asarlardan marsh, raqs va o'yinlar o'quvchilarga tez ta'sir etadi, shuning uchun ham quvnoq raqs, qiziqarli musiqali o'yinlar har bir bolaning e'tiborini o'ziga tortadi.

Musiqa madaniyati darslarida bajariladigan o'yinlar asosan ikki turga bo'linadi:

1. Qo'shiqning mazmuniga mos musiqali ritmik o'yinlar.
2. Raqslar.

1) Qo'shiq mazmuniga mos musiqiy-ritmik harakatlar qo'shiqning badiiy mazmuni, xarakteri va ifoda vositalariga mos tushishi shart. Qo'shiq mazmuni esa, ularning hayotiy tajribalarida, tabiat va hayvonot olami bilan munosabatlarida, xalq bolalar o'yinlarida o'z aksini topadi;

2) raqslar vositasida o'quvchilar milliy va qardosh xalqlar raqs harakatlari va musiqasi bilan yaqindan tanishadilar. Raqs musiqasiga mos milliy harakatlarni bajaradilar. Bunda o'quvchilarning dunyoqarashi, aqliy va nafosat tarbiyasi, musiqiy xotirasi, ritm tuyg'usi va diqqat-e'tibori rivojlanadi.

Shunday qilib, musiqiy o'yinlar o'z maqsad va vazifalariga ko'ra, didaktik o'yinlarga mansub bo'lib, asosan ritmik harakat vositasida ijro etilishi bilan ifodalanadi.

Musiqqa madaniyati darslarida bu faoliyat turi eng qiziqarli mashg'ulotdir. Bolalar cholg'u asboblari jonli tovushli o'yinchoqlar sifatida har bir o'quvchini qiziqtiradi. Chapak va bolalar cholg'u asboblarida ritmik jo'r bo'lish, musiqaning xarakteri va obrazlarni chuqurroq his etishda, ularga xos emotsional tuyg'ular hosil etish, ayniqsa, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqqa madaniyati darslarida bolalar cholg'u asboblaridan foydalanish ijobiy natijalar berish bilan birga o'quvchilarning darsga intiluvchanligini, qiziqishi va musiqiy uquvini (xotirasi, ritmni his etish tuyg'usini, nutqini) o'stiradi. Bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lishda, avval, o'quvchilar chapak chalib, ritmik jo'r bo'ladilar, o'qituvchi o'quvchilar kuy-ritmini to'g'ri his etib ijro etishlari uchun, bolalarga stol ustiga terib qo'yilgan cholg'u asboblarida chalib, musiqaga jo'r bo'lishlarini aytib qo'yishi lozim. So'ng biror cholg'uda kuyi o'zi ijro etib, chapak bilan jo'r bo'lishni ko'rsatadi. Keyin barchani kuyga chapak chalib, jo'r bo'lishni taklif etadi va ijro jarayonini diqqat bilan kuzatib, bolalar cholg'u asboblarini tarqatish uchun ilg'or o'quvchilarni tanlaydi. Birinchi ijrodagi yutuq va kamchiliklarni bartaraf qilib, yana bir takrorlab, chiroyli, to'g'ri ijro etiladi. So'ngra musiqiy uquvi bo'sh bo'lgan o'quvchilarga bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lishni taklif etadi. Shu tarzda sinfdagi o'quvchilarni galma-gal bolalar cholg'u asbobida jo'r bo'lishga undab, ularning qiziqishini oshiradi. Cholg'ularda chalishga hamma intiladi, albatta. Shuning uchun berilgan asarni bolalar xato qilmay musiqani to'g'ri his etishga va xotirada saqlashga harakat qiladilar. Keyinchalik ijrochilik turlari murakkablashtiriladi. Ayni holda sinfni ikki guruhga bo'lib, I guruh chapak chalib, II guruh ovozda usul berish bilan ham jo'r bo'lishi

mumkin. Yana bir turi — o‘qituvchi doirada usulni aniq va tekis chalib turadi. “Bum”ga I guruh bolalari “bak”ga II guruh bolalari jo‘r bo‘lishadi. Buni iloji bo‘lsa magnitofon tasmasiga yozib olib bajarsa ham bo‘ladi. Shuningdek, kuyni doskaga ko‘rsatilgan grafik sur‘ati va uning ritmiga tuzilmasini teng chorak va nimchorak notalar bilan ifodalash mumkin, biroq kartochkalardan foydalanilsa ham bo‘ladi. Bunday mashg‘ulotlarda dars mazmuni qiziqarli o‘tadi, o‘quvchilar bilimi mustahkamlanadi, ularda ijodkorlik, ijrochilik malakalari va musiqiy o‘quv qobiliyatlarining har tomonlama rivojlantirishni ta‘min etadi. Musiqa darslarida bolalar cholg‘u asboblari qo‘llash o‘qituvchidan katta mas‘uliyat, ijodkorlik va topqirlikni talab etadi.

Musiqa darsida qo‘llanadigan bolalar cholg‘u asboblari ikki turga bo‘linadi. Kuychan va kuychan bo‘lmagan cholg‘u asboblari. Kuychan cholg‘u asboblarga: metallafon va ksilafon; kuychan bo‘lmagan (shovqinli) cholg‘u asboblarga: doirachalar, rumbalar, marakasalar, uchburchaklar, qo‘ng‘iroqchalar, shaqildoqlar, barabanchalar, yog‘och qoshiqlar kiradi.

Musiqa darslarida bolalar cholg‘u asboblardan foydalanish o‘quvchilarning tembr uquvi, ritm tuyg‘usi, diqqati va xotirasini rivojlantiradi.



2.4. O'quvchilarning bilim malaka va ko'nikmalarini tekshirish va baholash

O'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirganligini, malaka va ko'nikmalar hosil bo'lganligini tekshirish va baholash o'qitish jarayonining zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o'qitish natijalarini nazorat qilish emas, balki o'quv jarayonining turli bosqichlarida o'quvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir.

Bilimlarni tekshirish va baholashning ta'lim berish ahamiyati shundan iboratki, bunda o'quv materialining o'zlashtirilganligi haqida o'qituvchi ham ham, o'quvchi ham ijobiy tavsifga ega bo'ladi. O'qituvchiga o'quvchi nimani bilish va nimani tushunmasligi, qaysm asar yaxshi o'zlashtirilganu, qaysi biri hali etarli darajada o'zlashtirilmaganligi yoki umuman o'zlashtirilmaganligi ma'lum bo'ladi. Bu o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va uni boshqarish uchun asos bo'lib hisoblanadi. O'qituvchi o'z ishining afzalliklariga va kamchiliklariga tanqidiy baho beradi. U ish metodlariga qo'shimchalarni kiritadi, o'z o'quvchilariga individual tarzda yondoshish yo'llari va vositalarini tezroq topib oladi. Shuningdek, o'qituvchining dasturdagi materialini o'quvchilarning bilish imkoniyatlari nuqtai nazardan chuqurroq tushunish va baholashi juda muhimdir.

O'quvchiga ham o'quv materialida nimani yaxshi, nimani qoniqarli va nimani yomon o'zlashtirilgani tushunarli bo'ladi. Bilimlarni tekshirmasdan maktab o'quvchisini o'z bilimlarini chuqur, har tomonlama chuqur baholashga qadar emas ba'zan unga go'yo u o'quv materialini yaxshi egallab olgandan tuyuladi, tekshirish chog'ida esa durust bilimasligi, yaxshi tushunmasligi ma'lum bo'libqoladi. Shuning uchun darslarda, ayniqsa boshalng'ich sinflarda, o'quvchi berilgan materialni o'qib kelganman deb ta'kidlaganligini eshitib qolasan. Tekshirish o'quvchining o'rganayotgan materialini tushunish, esda saqlab qolish, anglab olish darajasini belgilaydi o'quvchi o'z bilimlarining ijobiy tavsifiga, maktabda va uyda ishining uslubini takomillashtirish, bilimlarni, malaka va

ko'nikmalaridagi ijoyuiy tomonlarini rivojlantirish, kamchiliklarni tugatish imkoniyatiga ega bo'lan.²⁴

Bilimlarni, malaka va ko'nikmalarni tekshirish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda o'quuvchilarni o'qishga, o'z yutuqlari va muvoffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabat shakllanadi, qiyinchiliklarni engish istagi tug'iladi. Baho unda hamisha o'quvchi sifatida, shaxs sifatida o'ziga nisbatan muayyan bir munosabatni hosil qiladi. O'quvchining o'ziga nisbatan bu munosabatni, bu tuyg'ularini o'qituvchi uning harakteridagi irodalilik, jamoa bo'lish, o'zaro bir - biriga yordam berish kabi sifatlarni shakllantirish borasida ustalik bilan ishlatiladi.

Musiqa darslarida tekshirish deganda o'quvchilardagi bilim, ko'nikma va malakalarni, ularning ifodali kuylash qobiliyatlarini yoki musiqa faoliyatidan o'zlashtirish darajasini shuningdek, buning erishish yo'lida sarflangan kuch - g'ayratlarni aniqlashni xilma - xil usullari tushuniladi. Baho bu darajada yoki sifadni baholab fikr yuritish yoki bolalar vositasida qayd qilishdir. O'zlashtirishni tekshirish va baholash o'qituvchi va o'quvchiga rejalashtirilgan natijaga yaqinlashish harakteri va darajasi haqida ma'lumot berib, "teskari aloqa" vazifasini bajarida, bu esa har ikkalasiga ham o'quv faoliyatga maqsadga muvofiq tugutishlar kiritish imkonini beridi. Musiqa darslari amaliyyotida tekshirishning joriy, yakuniy va mavzuli turlari ko'p qo'llaniladi. Ular og'zaki va yozma ishlar, yakka va yoppasiga so'rash, dars bo'yicha ball qo'yish shaklida o'tkaziladi.

Mavzuni tekshirish butun mavzuni o'zlashtirishni nazorat qilib borishni ta'minlaydi. Musiqadan o'quv dasturining o'rganilgan mavzularidan birining mazmuni tekshiriladi. Darsda qisqa vaqt moboynda shunaqa savollar berish va shunaqa topshiriqlarni taklif etish kerakki, o'quvchi o'zini ularga mavzuning asosiy mazmunini asosiy g'oyalarini ko'rib turganday his qilish kerak mavzuli tekshirishning mohiyati ana shundan iborat. Bu tarzda o'tkazilgan tekshirishga

²⁴ Babanskiy Yu. "Hozirgi zamon umum ta'lim maktabida o'qitish metodlari". Toshkent, "O'qituvchi", 1990 yil.

musiqa haqida fikr yuritishga, musiqa fani qonuniyatlaridagi eng muhim jiddiy bog'lanishlarni topishga, musiqa asarlarini idrok etishga o'rgatadi. O'quvchi musiqa fanidagi muhim qoidalarni tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bilimlarni yakuniy tekshirish va baholash har bir chorak uchun va o'quv yilish yakunida o'tkaziladi. Uning ahamiyati o'quvchining musiqa fanidan erishgan yutuqlariga, rivojlanish darajasiga holisona to'g'ri baho berishdan iboratdir. Bunda musiqa tinglash, qo'shiq aytish, musiqa bilan harakat, bolalar musiqa asboblarida chalish faoliyatlarining jihatlari hisobga olinadi.

Yakuniy baho o'quvchining chorak yoki o'quv yili davomidagi natijasini aks ettiradi. Lekin u o'quvchining shu davr davomida olgan barcha baholarining o'rtacha arifmetik soha emas. Musiqa o'qituvchisi maktab o'quvchisining bilimlarini egallashi jarayonining yaxshi tasavvur eta olishi, muvoffaqiyatsizliklari va nuqsonlarini ko'ra bilishi, yutuqlari va muvoffaqiyatlarini sezish kerak. Axir, ba'zida o'quvchi musiqa faolityalaridan birortasida bitta tayyorlamagan darsi uchun qoniqarsiz baho oldiki, bu uning butun chorak yoki yil moboynidagi o'zlashtirishining pasaytirib yuborishi mumkin. Bunday vaziyat maktab o'quvchilari muvoffaqiyatini holisona aks ettirmaydi.

Odatda yozma va mustaqil ishlar bilimlarini tekshirshning asosiy shaxslarni hisoblanadi. Bunda yutuq ko'p jixatdan ustalik bilan tanilgan matnga va maktab o'quvchilarining diqqat - e'tibori qanchalik jalb etilganligiga bog'liq bo'ladi. Musiqa orasida musiqa savodidan yozma ish va mustaqil ishlar o'tkaziladi. Notalarning bo'linishi, asosiy pog'onalar orasida yarim ton va butun tonliklar joylashishi, alteratsiya belgilari va dianmik belgilarga doir ishlar bajarish ana shular jumlasiga kiradi²⁵.

Yozma ishning mazmuni ma'nosiga ko'ra aniq bo'lishi kerak. O'quvchi vazifani bajarish uchun qaysi qoidalarni, tushunchalarni, qonunlarni eslashi kerakligini bilishi lozim.

²⁵ Soliev N, Umarov A "Musiqa savodi alifbosi o'qitish" bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. T. 2003 yil.

O'quvchi asosiy mazmuni tekshiriladigan mavuzalrning o'tgan darslarda takrorlanishini tashkil etadi. O'quvchilar qoidalar va tushunchalarni esga tushurishadi, mashq tarzida mustaqil ishlar bajarishadi. Bu ularda o'z kuchlariga ishonch tug'diradi.

O'quvchilardan yakka tarzda va yoppasiga ko'rish bilimlarni joriy, mavzuni va yakuniy tekshirishning keng tarqalgan shakllari hisoblanadi. Savol butun sinfga beriladi. Savollar "bu qanday nota va nechaga sanaladi?", "O'rgangan qo'shig'imiz tempi (surati) qanaqa?", "Re majorda qanday belgilar mavjud?" kabi bo'lishi mumkin. Bir muncha vaqt moboynda har bir o'quvchi qanday javob berish haqida o'ylaydi.

Yakka tarzda so'rash chog'ida qo'shiq kuylaydigan bo'lsa, cholg'u asbobi yaqinida, savol javobida zarur bo'lsa doska oldiga turib javob beradi. O'quvchining javobini butun sinf bolalari eshitib turadi. O'quvchilar yo'l qo'ygat hatolarni to'g'rilaydilar, o'z qo'shimchalarini va izohlarini qo'shadilar.

Dars bo'yicha bal qo'yish o'quvchilar bilimlarini tekshirish va baholash shakli sifatida o'qitish amaliyotida qo'llaniladi. Musiqa o'qituvchisi dars moboynda musiqa faoliyatini turlari bo'yicha bolalarning faoliyatini ularning qo'shiq ijrosini, musiqqa idrokini, fikrlarini, qo'shimchalarini, savollarini, diqqat e'tiborining barqarorligini, ishchanlik qobiliyatini kuzatib boradi. O'quvchi yakka tarzda so'rash uchun maxsus qo'shimcha vaqt qoldirmagan holada o'quv materialining o'zlashtirish sifatini holisona baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Dars so'ngida o'qituvchi belgilangan shakl bo'yicha har bir o'quvchiga izohli baho yani dars bo'yicha bal qo'yadi. O'quvchilarni kuzatib borish ularning bilimlarini baholash uchun asos bo'ladi. Tajribali o'qituvchi bir darsning o'zida to'rttadan o'n nafargacha o'quvchiga baho qo'yishi mumkin. Lekin o'quvchilarni dars so'ngida dars bo'yicha bal qo'yilishi haqida oldindan ogohlantirib qo'ygan holda boshqalarga ham e'tibor qilish mumkin. Tekshirishning bunday shakli o'quvchilarni safarbar etadi, ularni butun dars davomida diqqat bilan o'tirishga majbur qiladi.

O'quvchilarni musiqa fanidan o'zlashtirishlarisha qarab davlat dasturining bajarilishi sifatida haqida, musiqa faoliyatining natijalari haqida musiqa savodidan olgan bilimlari, kuylash malaka va ko'nikmalari haqida, ularning rivojlanish darajasi haqida xulosa chiqariladi.

Musiqa o'qituvchisi o'quvchi bilimiga bahoning asoslab qo'yilganligi katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. O'qituvchining baholashdagi mulohazalari o'quvchiga yordam berishi, uni ilhomlantirish yoki, aksincha, uning uning faolligini so'ndirishi mumkin. O'quvchining shaxsini kamsitadigan so'zlar behafsala o'quvchiga yordam berishi uchun aqli rasolik bilan bildiriladigan astakdan ko'ra ko'proq o'qituvchining unga zarfa bilan munosabatda bo'lishi bolaning musiqa faniga va o'qituvchiga hurmatini so'ndiradi. Bahoning qo'shimcha belgisi ya'ni plbslari, minuslari va boshqa alomatlari bo'lmasligi kerak.

Har qanday o'quvchiga, hatto, eng qoloq o'quvchiga ham u yaxshi o'qishi mumkinligini, u qobilyatli ekanligi tushunib etishi uchun yordam berishi kerak.

Ayrim hollarda yomon yoki o'rtacha o'zlashtiruvchi o'quvchining bilimlarini agar shu bosqichda tirishqoqlik va intilish ko'rsatayotgan bo'lsa, oshiribroq baholash mumkin. O'z vaqtida qilingan bunday madad ishonch hosil qiladi. Ijodiy ruh baxsh etib, fanga qiziqish ortib boradi.

O'quvchi o'rtoqlarining, ota onalarining unga, maktabdagi yutuqlariga va muvoffaqiyatsizliklariga munosabatiga hech qachon befarq bo'lib qolmaydi. Uning bilimlariga berilgan kundalik daftariga qo'yilgan boholar ushbu munosabatni belgilaydi. Mana shuning uchun ham maqtoov, maqullash, tanbeh berish, yaxshi yoki yomon baho qo'yish o'quvchi shaxsining fazilatlarini, uning tengdoshlari jamoasida va katta yoshdagilar orasda mavqeyini shakllantirad. Bu ayniqsa, o'smirlar orasida katta ahamiyatga egadir. Kimki bilimlarning tekshirish va baholashning tarbiyaviy ahamiyatining to'g'ri qo'llana bilsa o'ar bir o'quvchi oldida o'qish sohasida qulay istiqbollarni ochib beradi²⁶.

²⁶ Ishmuxammedov R. J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. TDPU 2004 yil.

Bilimlarni tekshirish va baholash davlat ahamiyatiga egadir. Xalq maorifi organlari o'quv faoliyatining tekshirish natijalariga, maktab o'quvchilari olgan bilimlar malaka va ko'nikmalarning bahosiga binoan maktablar, o'quvchilar jamoasining ishi haqida o'quvchilarning o'zlashtirishi haqida xulosa chiqaradilar. Maktab ma'muriyati, shahar, tuman, viloyat xalq maorifi bo'limlari, xalq ta'limi vazirliklari har doim o'quvchilarning bilimlari sifati haqida, maktablar va o'quvchilar ishning afzal va kamchilik tomonlari haqida xulosa chiqarish mumkin bo'lgan maxsus tekshiruv yoki nazorat ishlarini berish imkoniyatiga egadir.

Bilimlarni tekshirish va baholash muayyan didaktik talablarga javob berishi kerak va nazorat qilish tizimli, doimiy tarzda bo'lishi shart. Bu talabga rioya etilmasa o'quvchilarning o'qishga nisbatan munosabati yomonlashadi, bilimlarning sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Maktab o'quvchilari darsga har kuni tayyorlanib borishlari kerak. O'qituvchining doimiy ravishda nazorat qilib turishi shunga majbur etadi.

Bilimlarni baholash individual harakterga egadir. Har bir o'quvchi uning bilimlari, malaka va ko'nikmalari baholanayotganini tushunishi kerak. Uning o'rtoqlaridan birontasi ham u bilan na yaxshi na yomon bahoni baham ko'ra olmaydi. O'qituvchini savollarga va vazifalarga javob berishga tayyorgarlik holati bilimlarni tekshirish va baholash o'quv jarayonining muhim bir bo'lagiga aylangan, uning tuzilishiga tarkibiy qism sifatida kirgan taqdirdagina ro'y beradi.

Maktab o'quvchilarining bilimlari malaka va ko'nikmalari davlat o'quv dasturining bajarilishi nuqtai nazaridan tekshiriladi va baholanadi. Dasturlar mazmunini o'zlashtirish sifati - bilimlarni baholashda asosiy mezondir. O'qituvchi o'quvchining qanday qo'shimcha bilimlarga ega ekanligini qanday qo'shimcha adabiyotlarni o'qishni bilish kerak, ammo buning uchun baho qo'yilmaslik

kerak. Maslahatlar, tavsiyalar, yo'l - yo'riqlar bilan yordam berishning o'zi kifoya qiladi.

Maktab o'quvchilarining nazariy va daliliy materialini o'zlashtirib olganliklarini tekshirish chog'ida olinayotgan bilimlar o'quvchilarning umumiy va aqliy jihatdan rivojlanishiga shaxsiy fazilatlarining shakllanishiga ta'sirini ko'ra bilish kerak²⁷.

O'quvchilarning bilimlari, malaka va ko'nikmalarini tekshirish shakllari rang - barangdir. Ba'zan o'qituvchi bilimlarini tekshirishning uzoq vaqt moboynda bir xildagi usullarini qo'llaydi. Unda so'rash, savol berish, bahono izohlash sohasida muayyan odat paydo bo'ladi. O'quvchilar bunday tekshirishga moslashib ketadilar, o'qituvchining qay tarzda so'rashi ularga oldindan ularga oldindan ma'lum bo'ladi. Ular faqat o'qituvchi uchun, uni qanoatlantirish uchun javo bera boshlaydilar, tekshirish - shakllarining rang - barangligi o'quvchilarning o'zlarini bilimiga, uni qaytarishga diqqatini jalb etishga majbur qiladi. Bu holda o'quvchi o'qituvchiga yoqish uning uchun javob berish haqida kamroq o'ylaydi. Tekshirishning rang - baragligi quyi sinflarda o'quvchilarda bilimlarni tekshirish va baholashga munosabat shakllana boshlaydigan bir paytda juda ham muhimdir.

²⁷ Karimov M., M.Ikromova Raqs elementlari orqali o'quvchilarni jismoniy rivojlantirish Toshkent - Ilm ziyo -2008 yil.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Musiqqa pedagoglarning o'quvchilar bilan bevosita muomalasi maktab o'quvchilarning muomalasiga pedagogik ta'sir ko'rsatishning o'ziga hos vositasi deb qarash mumkin. Nafis did va farosat, xulq-atvor odamlar bilan munosabatda namoyon bo'ladi. Kishilar o'rtasida, ko'pchilik orasida, turli marosimlarda kishi o'zini qanday tutishi uni qanday hatti - harakat qilishi, ya'ni axloq nafosati, muomala-munosabat qoidalari muloqot ko'rsatkichi deb ataladi. Odob ko'rsatkichi esa nafosat bilan go'zal ahloqning majmuasi desa bo'ladi. Go'zal odob ko'rsatkich go'zal hulq va madaniy muomalada o'z ifodasini topadi.

Musiqqa o'qituvchining o'z o'quvchilarni: ularni fe'l-atvorini, tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlarni, turli voqealarga, muammolarga va xokazolarga munosabatlarini doimo o'zgarib va yaxshi bilib olsa, unda bolalar bilan munosabatlarda xushmuomala bo'lish imkoniyatlari shu qadar ko'proq bo'ladi.

O'quvchilar bilan o'z muomalasini baqirib va mayda - chuyda narsalarga aralashishiga aylantirib yubormaslik uchun kundalik ishlarda nimanidir sezmay qolishini o'rganish muhimdir. Nihoyat, boshqa biror narsani tushunmay qolish ham foydali bo'ladi. Bularning hammasi musiqqa o'qituvchining o'quvchilar bilan bo'ladigan kichik ixtiloflariga barham beradi, unga o'quvchilar bilan bo'ladigan kelishmovchiliklarga tegishli darajada odob bilan aralashuviga yordam beradi.

O'qituvchilar bilan muomala qilish musiqqa pedagogning o'z tarbiyalanuvchilari bilan muloqat olib borish mahoratini taqozo etadi. Buning uchun esa u gapirishni bilishi zarur. Gapirishni, muloqat olib borishni doimo o'rganib borish kerak. Bu o'rinda ikki savol tug'iladi nimaning o'rganish kerak? Va qanday o'rganib kerak? Musiqqa o'qituvchidan usul, uslub vositalardan samarali foydalanish bu savollarga javob bo'ladi.

Musiqqa idroki va musiqqa faoliyati o'zaro uzviy bog'lanishi bilan qolgan barcha faoliyatlar amaliyotiga yetakchilik qiladi. Kuylash faoliyati o'quvchilarning musiqqa-o'quv qobiliyatini hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bo'lib, kuylash jarayonida o'quvchi o'z ovoz ijrosini boshqaradi, o'rtoqlarining ijrolarini eshitib kuzatadi va ular

bilan bahanjihat jo'rnavezlik qilishga intiladi. Zotan, tinglash va kuylash, o'quv materiallari ta'lim mazmunini tashkil etadi. Ularni tinglash va kuylash faoliyatlari vositasida o'rganish bilan birga cholguchilik, musiqali harakatlar hamda ijodkorlik faoliyatlari bilan ham har tomonlama o'zlashtirish musiqiy tavsiflarni ushbu faoliyatlar vositasida ifodalash imkoniyatlari yaratiladi. Dasturda raqs va musiqali harakatlarga alohida o'rin berilgan. Bu faoliyatlar o'quvchilar musiqiy qobiliyatlari, xususan, ritm - chiziq usul tuyg'usi va asar badiyatini ifodalash malakalarini rivojlantirish bilan birga, ularning jismoniy rivojlanishlari uchun ham muhimdir. Shu bois, musiqa o'qituvchisi milliy raqs san'atimizning oddiy harakatlarini bilishi va darsda qo'llash usulini puxta egallashi bugungi davr talabidir. Chapakda va cholg'u asboblarida chalish faoliyati ham, raqs va musiqali harakatlar singari, o'quvchilarning musiqiy hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun foydalidir. Bu faoliyat boshlang'ich sinflarda milliy cholg'u asboblar bilan tanishish va ularning tovush tembrlarini anglab olish bilan uzviy bog'lanib amalga oshirilishi zarur. Bunda doirachalar, qayrok, kichiq safonlar kabi urma cholg'u asboblaridan foydalanib, o'qituvchi ijrosiga doira chertib jo'rnavezlik qilish, sinf ijrosiga dirijyorlik qilish, kuy ohangiga mos harakatlarni, xususan, raqs harakatlarini topish, she'r parchasiga kuy bastalash kabi ijodkorlik bilan bajariladi. Bu faoliyat sinfdagi iqtidorli o'quvchilar e'tiborini - kuchaytirish, ularning badiiy extiyojini qondirish va badiiy rivojlantirish uchun ayniqsa muhimdir. Musiqali harakatlar, cholg'uchilik va ijodkorlik faoliyatlarni amalga oshirishda o'yin uslublaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Pedagog bilan bola o'rtasida aloqalarning o'rnatilishi albatta o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar samaradorligining asosiy shartidir.

Xulosa va takliflar

Fanlar bo'yicha metodik birlashmalarning kengashlarida o'qituvchilar, o'qitish metodlarini tanlashda foydalanish maqsadida konkret misollarda o'quvchilarning haqiqiy imkoniyatlarining tekshiradilar, dars davomida o'zgarib turadigan sharoitlarni hisobga olib o'qitishni tez tuzatish usullarini o'rganadilar. O'quv xonalarida, tayyki, barcha xilma - xil o'qitish metodlaridan muvoffaqiyatli foydalanish uchun zarur bo'lsa o'quv - uslubiy va maktab sharoitlarida yaratish kerak. Nihoyat, ta'lim metodlarini optimallashtirish maktab ichki nazorati va tekshirishning harakterini o'zgartirishni talab qiladi, bunda o'qitish metodlari tanlashni tahlil qilishga ko'proq e'tibor berilishi kerak.

O'qituvchilarga o'qitish metodlarining maqbul variantlarini tanlay bilishni o'rgatish yuzasidan o'tkazilgan tajriba shuni ko'rsatadiki, mohir o'qituvchilar eksperiment davomida o'z tajribalarini metodlarni tanlashga yaxlit yondoshish nuqtai nazaridan qayta ko'ib chiqqanlar ularda nazorat bilimlarini yangilash ehtiyoji yuzaga kelgan.

Endigina ish boshlagan va etarlicha tajribaga ega bo'lmagan o'qituvchilarda nazorat bilimlarda ham metodlarni tanlash va o'z ishida qo'llanishdek amaliy mahoratlarda ham olg'a siljish kuzatiladi. Ular ilgari foydalanilmagan yang metodlar to'g'risida ma'lumot oladilar, ularni tanlash tartibi bilan tanishadilar, metodlarni ta'riflashga va tanlashga har tomonlama yondoshish zarurligini tushuntirib ketadilar.

Lekin mohir o'qituvchilar uchun metodlarni tanlash tartibini tushuntirish yuzasidan nazariy seminarlar va maslahat soatlari o'tkazish kifoya qilgan bo'lsa, endigina ishlay boshlagan va etarlicha tajribaga ega bo'lmagan o'qituvchilar uchun esa quyidagi tadbirlarni ham o'tkazishga to'g'ri keladi.

Eksperiment materiallardan foydalanish bo'yicha belgilangan mashg'ulotlar; bunday foydalanishning namunalarini konkret darslar misolida ko'rsatish; navbatdagi darsni metodikalar kompleks (ko'nikmalar, vazifalar tizimi metodlar va boshqalar) dan foydalangan holda birgalikda eksperimental rejalashtirish; dars vazifalarini qo'yishni va metodlarni tanlashni eksperimentator

rahbarligida bir necha bor mashq qilib ko'rish; didaktik vazifalarni konkretlashtirish bo'yicha individual suhbat - maslahatlar seriyasidan foydalanish, metodlarni konkret, sinf va dars uchun ularning xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'shib qo'llash yuzasidan (sinf tavsifini to'ldirish, dars mavzusini, turini tahlil qilish va hokazolar) ifodalash; o'tkazilgan darslarni umumiy qabul qilingan mezonlar bo'yicha birgalikda tahlil qilish.

O'qituvchi har bir sinfnng imkoniyatlarini nazarda tutib, mazkur darsning mavzu bo'yicha darslar tizimidagi o'rnini belgilaydi, mazkur darsda hal qilinadigan vazifalarni optimal kompleksini rivojlantiradi, qaysi sinfdan qanday vazifa ustun bo'lishini belgilaydi, darsning optimal tuzilishini o'ylab topadi²⁸.

Yuqoridagi fikrlarga ko'ra bu erda quyidagi takliflarni berish maqul bo'ladi.

a) fanlarning o'rgatilishi va murakkabligiga ko'ra qaysi fanga qaysi metod maqulligini mutaxassislar aniqlab chiqsalar;

b) metodlar bo'yicha o'quv uslubiy ko'rsatma yaratilsa;

v) ilg'or o'qituvchilarning metodlarni qo'llash bo'yicha yutuqlarini matbuotda targ'ib qilinsa;

O'qituvchi har bir darsning oxirida sinf ishini yakunlaydi, qo'yilgan baholarni izohlaydi, o'quvchilarning mazkur darsdagi ishini baholaydi.

Uy vazifalarini sinfdagi o'quvchilarning hammasi berilgan vaqt ichida bajara olishlari uchun o'qituvchi bu vazifalarni hajm jihatdan maqbullari va murakkabligiga ko'ra ularni bilimiga muvofiq kelish yoki kelmasligini belgilab qo'yadi. Ko'p hollarda yo'lanma beriladi.

Uy vazifalarini bo'sh o'zlashtiradigan o'quvchilarning rivojlanishiga, umumiy o'quv mahoratlari va malakalarini egallashlariga yordam bersin uchun uy vazifasi tabaqalashtiriladi, odatda bunday mahorat va malakalarning qay darajada ekanligi esa pedagogik konsilium davomida aniqlanadi.

²⁸ Musabekova S.I. Muziqa tarbiyasi. -Toshkent:, 1973 yil

O'qishni rag'batlantirish metodlarda va muammoli izlanish metodlaridan foydalanishda o'qituvchilar alohida qiyinchiliklarga duch keladilar. O'qituvchilar darslarda bilimga oid o'yinlar va o'quv munozaralari tashkil qilish mahoratiga hali etarli darajada emaslar.

Maktablarning ish tajribalari o'qituvchilar jamoasida metodik mahorat darajasi bo'yicha ma'lum darajada tabaqalanish har doim saqlanishini ko'rsatadi, chunki maktabda yosh pedagoglar kelib qo'shiladi, unga boshqa maktablardan o'qituvchilar keldai, jamoa asosiy negizining o'zi ham mahorat cho'qqisiga bir vaqtda erishmaydi. Bularning barchasi o'qituvchilar bilan bo'ladigan metodik o'qishga tabaqalashtirilgan holda yondoshish zarurligini ko'rsatadi.

Darsning berilgan bosqichidagi ustun turuvchi o'qitish metodining tizimli tuzuvchilik roli shundaki, u boshqa barcha metodlarini asosiy vasifasiga bo'ysundira oladi. Masalan, agar bu darsning asosiy vazifasi o'quvchilarning musiqiy tafakkurini rivojlantirish bo'lib, o'qituvchi o'qitishning muammoli izlanish metodini etakchi metodi qilib tanlangan bo'lsa, unda odatiy suhbat muammoli harakterni kasb etadi, ko'rgazmalilik fikr yuritish uchun savol qo'yishga yordam beradi yoki ularni xal qilishga olib keladi, mutaqil amaliy ish izlanish harakteriga ega bo'ladi.

Shunday qilib, ustun turuvchi metod barcha metodlar birikmalarini o'zgartirib, ayrim metodlarining barchasi asosiy didaktik vazifaga bo'ysindiradi.

Musiqiy ta'limning oliy maqsadi: yosh avlodni milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan hamda musiqa boyligini idrok yeta oladigan, yetuk, barkamol, madaniyatli, nafaqat o'z milliy an'analarini, balki boshqa millatlar madaniyatidan boxabar va bu an'ana, madaniyatlarini hurmat qiladigan qilib voyaga yetkazishdan iboratdir. Bunda nafosat tarbiyasining ahamiyati benihoya kattadir. Nafosat tarbiyasining mazmuni serqirra bo'lib, musiqa tarbiya eng asosiy o'rinni egallaydi. Xalq pedagogikasi o'sib, rivojlanib borayotgan bir davrda xalq musiqiy namunalarini o'rganish atoqli san'atkorlar ijodidan dars jarayonida keng foydalanish musiqa o'qituvchisi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri yekanligi ta'kidlanadi. Mazkur tavsiyada mavjud pedagogik vazifalar saqlangan holda,

O'zbekistonga xos milliy qadriyatlar, an'analar, xalq ijodi, musiqani bolalarning idrok etish qobiliyati darajasiga bosqichma-bosqich tadbiq etish nazarda tutiladi. Tavsiya etilyotgan qo'llanmadagi musiqa repertuari jonajon vatanga muhabbat, mehnasevarlik, tabiatni ye'zozlash, do'stlik, hamjihatlik, rahm-shavqat kabi hislar musiqiy obrazlar orqali idrok etishga qaratilgan va dars jarayonida quyidagi ijrochilik malakalarini shakllantirish zarur. Tovushni to'g'ri ohangda ijro etish, musiqa ostida o'yin harakatlarni ifodali bajara olish, cholg'u asboblarining tovushiga ko'ra ajrata olish va ularni aniq uslublarda, bolalar cholg'u asboblarida chalishga o'rgatishdan iborat.

Musiqa darslari jarayonida musiqaviy o'yin harakatlarni bajarish faoliyati tarbiyalanuvchilarning musiqiy qobiliyatlari, xususan, ritm-usul tuyg'usi va asar badiyatini harakatlarda ifodalash malakalarini rivojlantirish bilan birga, ularning jismoniy rivojlanishlari uchun ham muhimdir. Bu, ayniqsa, boshlang'ich sinf tarbiyalanuvchilari uchun nihoyatda zarurdir. Chunki yosh bolalarning me'yoriy rivojlanishlarida har qanday harakat turlari muhim rol o'ynaydi. Bu borada musiqa darslari mazmunida katta imkoniyatlari mavjud va musiqa darslari o'zining mazkur xususiyatlari bilan ham boshqa fanlardan ijobiy farq qiladi.

Musiqa darslari bundan nafaqat istisnodir, balki musiqali harakat turlari o'rganayotgan asarning xarakteri, badiiy obrazlari, ifodaviy va ijro xususiyatlarini chuqur his etish hamda ularni ma'lum darajada ijodkorona ifodalash uchun ham muhimdir. Ana shunda dars boshidan oxirigacha uzilmaydi va mantiqdan bir butunlikni tashkil etadi.

Shuni ham aytish lozimki, o'zbek xalqi milliy raqs san'ai bilan dunyoga dong taratgan. Ammo maktab ta'lim-tarbiyasi tarkibida raqs sabog'i deyarli yo'q darajadaligini nazarda tutsak, musiqa darslari mazmunida milliy raqs usullarini bolalarga yoshlikdan o'rgatish naqadar zarurligi ma'lum bo'ladi.


FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.M.Mirziyoev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishish kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahamasining 2016yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi.//Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar №11.
2. Sh.M.Mirziyoev. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz.T. "O'zbekiston" 2017 yil.
3. Sh.M.Mirziyoev. Erkin va faravon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston" NMIU, 2016 yil.
4. Sh.M.Mirziyoev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligi garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2016 yil.
5. Акбаров И.А. "Музыка луғати". Тошкент:, 1987 йил.
6. Abralova M., Galieva D., Qo'shaev A. Musiqa. 3-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. T., 2008 yil.
7. "Maktabda musiqaviy tarbiya" (musiqa o'qituvchilari uchun metodik tavsiyalar). Toshkent. 1991 yil.
8. Boymirzayev X. va boshqalar. "Musiqa o'rganish metodikasi". T. 1995 yil
9. Babanskiy Yu. "Hozirgi zamon umum ta'lim maktabida o'qitish metodlari". Toshkent, "O'qituvchi", 1990 yil.
10. Soliev N, Umarov A "Musiqa savodi alifbosi o'qitish" bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. T. 2003 yil.
11. Ishmuxammedov.R.J. "Innovation texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari". TDPU 2004 yil.
12. Nurmatov Q., Norxo'jaev N. "Musiqa alifbosi" 1-sinf uchun darslik.- T.: "G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi", 2008-yil.
13. Nurmatov Q., Norxo'jaev N. "Musiqa" 2-sinf uchun darslik.- T.: "G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi", 2008-yil.
14. Nurmatov Q., Norxo'jaev N. "Musiqa" 3-sinf uchun darslik.- T.: "G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi", 2008-yil.

15. Omonullaeva D., P.Mo'min. Alifbo qo'shiqlari. T. «Sharq», 2000 yil.
16. Ibrohimov O. va boshqalar "Musika" 4-sinf uchun darshik.- T.: "G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi", 2007-yil.
17. Xasanov. A. "Musika va tarbiya". Toshkent. 1993 yil.
18. Yo'ldosheva.S.X. "O'zbekistonda musika tarbiyasi va ta'limining rivojlanishi". Toshkent. 1985 yil.
19. Soipova D. Musika o'qitish metodikasi va nazariyasi Toshkent. 2009 yil.
20. Konnorova Ye. "Ritmika" Toshkent. 2007 yil.
21. Karimova D. "Musiqiy pedagogik mahorat asoslari". Toshkent 2008yil.
22. Karimov M., M.Ikromova "Raqs elementlari orqali o'quvchilarni jismoniy rivojlantirish" Toshkent - Ilm ziyo -2008 yil.
23. Sharipova G. "O'rta III-IV sinflarda musika madaniyati darslari uchun metodik qo'llanma" 2001 yil.
24. Sharipova G.M. "Musika va uni o'qitish metodikasi". T., 2006 yil.
25. Umumiy orta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi 7- maxsus son. Musika T., 1999 yil.
26. Ortiqov T. "Musika o'qitish metodikasi". Toshkent. 2010 yil.
27. Omonullayeva D, Nurmatov H.va boshqalar. "Boshlang'ich ta'lim DTS dasturi" 1999 yil
28. Omonullaev D. "Maktabda musika tarbiyasi metodikasidan lektsiyalar kursi" T.1990 yil.
29. Qodirov R.G. "Boshlang'ich sinflarda ko'p ovozli kuylash". T., 1997 yil.

ILOVA

Musiqiy o'qitishning og'zaki metodlari



O'qitishning ko'rgazmali metodlari.

Bunda:
a) balandligi, b) ritmi, v) balandligi + ritmi.


1-darsda ○ ○ ○ ○ ○ ○

2-darsda ○ ○ ○ ○ ○ ○

3-darsda ○ ○ ○ ○ ○ ○


4-darsda ♪ ♪ ♪ ♪ ♪ ♪

5-darsda ♪ ♪ ♪ ♪ ♪ ♪



O'qitishning amaliy metodlari.







Musiqiy tarbiyaning metodlari

